



**Ozbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi
Jizzax davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti**

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrası

MEHNAT VA UNI O'QITISH USLUBI FANIDAN

MA'RUZALAR MATNI

*5111700 – Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish bakalavr
ta'lim yo'nalish 3-kurs talabalari uchun*

Tuzuvchilar:

Katta o'qituvchi Suvonqulova. N

Haydarov. D

Qulboyeva. D

Jizzax 2014-2015

Mavzu: №1. Boshlang'ich sinflarda mexnat ta'limi va tarbiyasining vazifalari.

Ajratilgan soat – 2

Mashg'ulot turi – ma'ruza

Aosiy masalalar

1. Boshlang'ich sinflarda mexnat ta'limini fan sifatida o'qitilishi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi xaqida tushuncha berish.
2. Boshlang'ich sinflarda mexnat ta'limi va tarbiyasining vazifalari.

Tayanch ibora va tushunchalar: milliy dastur, mexnat ta'limi, tarbiya, sharoit mutaffakirlari, jamoa, kasb-xunar, intizom, aqliy mexnat, jismoniy mexnat, rivojlantiruvchi maksad, ta'limiy maksad, etnik, vosita.

1 - asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi : kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmun va mohiyati xaqida tushuncha berish. Talabalarning mexnat tarbiyasi xaqidagi bilim ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1 Kadrlar tayyorlash milliy dasturini mazmun va mohiyatini tushuntirib beradilar .
- 1.2 Boshlang'ich sinflarda mexnat ta'limini o'qitishning o'ziga xosligini gapirib beradilar.

1 - asosiy masalaning bayonini:

Respublikamiz ta'lim tizimi, jumladan umumiy o'rta ta'lim mazmuni "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida bosqichma-bosqich yangilab borilmokda. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi 203-sonli qaroriga asosan ta'lim tizimi mazmunini yangilash, ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi malakasi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlari yaratildi va bosqichma-bosqich joriy etib borilmoqda.

Mehnat tarbiyasi uning ahamiyati to'g'risida qomusiy mutafakkirlarimiz Ibn Sino, Farobiy, Naqshbandiy, Kaykovus, A.Navoiy, Termiziy kabi allomalarimiz o'z asarlarida mehnat tarbiyasini ulug'lab, yoshlarni mehnat qilishga, mehnatning inson faoliyatida o'rnini haqida fikr bildirishgan.

Respublikamizda mehnat ta'limi uning taraqqiyotiga ko'pgina olimlar A.Varobyev, N.Shodiyev, E.Choriyev, N.Nishonaliyev, O.M.Ma'zumov, R.Mavlonova, O.Magdiyev, K.Davlatov, U.Tolipovlarning darslik va metodik qo'llanmalari chop etilgan. Mexnat ta'limi fanining umumiy o'rta ta'lim maktablariga fan sifatida o'qitilishi 1932 yildan amalga oshirildi. Olimlar o'rtasida mexnat ta'limining fan sifatida o'qitilishi ancha tortushuvlarga sabab bo'ldi. Birinchi

toifali olimlar mehnat ta'limi barcha fanlarga kushilib utilishi maksadga muvofiq degan fikrlarni olg'a surdilar.

Loyixa sistemasiga binoan matematika, kimyo, biologiya va boshqa o'quv predmetlariga oid bilim elementlari o'quvchilarga beriladigan mehnat topshiriqlari atrofiga gruppalash boshlandi.

Masalan, bog'da o'ra qazish topshirig'ini olgan o'quvchilar uni bajarish uchun qancha tuproq chiqarib tashlashni hisoblashlari (matematika), o'ra konturini belgilashlari (chizmachilik), tuproq xarakteri bilan tan olishlari (geografiya) kerak edi. O'quv jarayonini bunday tashkil etishda o'quvchilarni fan asoslarining sistemali bilimlar bilan qurollantirishni iloji yo'qligi mutlaqo ravshan.

1937 yilda maktablarda mustaqil o'quv predmeti sifatida mehnat ta'limi tugatildi chunki o'sha vaqtlarda maktabning moddiy bazasi juda nochor edi.

1952 yil mehnat ta'limiga jamoatchilik e'tibori qaratildi. Maktablarda mehnat ta'limi va mehnat tarbiyasini zarurligi o'quvchilarni ishlab chiqarish bilan aloqasi bo'lishi kerakligi ko'rsatib o'tildi.

1954 yilda mehnat ta'limini o'rta maktab o'quv rejasiga o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish vositalaridan biri sifatida kiritildi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi sifatida barcha o'quv predmetlari, jumladan mehnat ta'limini o'qitish mazmuni ham mukammallashib bormoqda. Ushbu o'quv fanining maqsadi-o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari va jarayonlari hamda kasblar bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, o'quvchilar mehnatni qadrlashni, uning jamiyatdagi o'rnini bilishni, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish orqali kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat. Respublikamiz mustakillikka kadam kuygan kundan boshlab ta'limga katta e'tibor berila boshladi jumladan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chikildi va uch boskichda amalga oshirilmokda.

Birinchi bosqich-o'tish davri bo'lib, u 1997-2001 yillarda ya'ni 4 yil davomida joiry etiladi. Bunda kadrlar tayyorlash tizimi salohiyatini saqlab qolish, uning rivojlanishi uchun xuquqiy-meyoriy ilmiy metodik moliyaviy moddiy shart sharoitlar yaratish lozim.

Ikkinchi bosqichda 2001-2005 yillarni o'z ichiga oladi. Bunda milliy dasturni keng miqiyosida amalga oshirishga erishish darkor. Tizim faoliyatning samaradorligini mehnat bozorini inobatga olib, ijtimoiy iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib dastur g'oyalari va qoidalariga kerakli o'zgarishlar kiritiladi.

Uchinchi bosqichda 2005 va keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy iqtisodiy shart sharoitlarni etiborga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish zarur.

Bizga ma'lumki xalq ta'limining asosiy bugunini uzluksiz ta'lim tizimi tashkil etadi.

Shuning uchun ham umumta'lim darslarini maktabgacha tarbiya, boshlang'ich umumiy ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim tarzida tuzilsa maktabga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagi tizimni asos qilib olamiz;

Birinchi ;maktabgacha ta'lim. Uch yoshdan boshlanib, olti, yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulkchilik ko'rinishidan qattay nazar boshqa hil ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.

Ikkinchi; umumiy ta'lim. Bunda o'quvchilarga 5-9-sinflar doirasida ta'lim va tarbiya beriladi.

Uchinchi; boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Bunda o'qish olti, yetti yoshdan boshlanadi.

To'rtinchidan; o'rta maxsus bilim va kasb xunar ta'limi. O'qish muddati uch yildan kam bo'lmagan muddatda davom etadi. Oliy mutaxassis ta'limi bakalavrlik ham magistraturaga bo'linadi. Bakalavrlik yo'nalishidan biri bo'lib, ba'zaviy oliy ta'lim berish demakdir. Undan o'qish kamida to'rt yil davom etib, u oliy ma'lumot va tayanch mutaxassislik diplomini olish bilan tugaydi. Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha oliy kasbiy ta'lim bo'lib, bakalavrlik negizida kamida ikki yil davom etadi. Undagi taxsil yakuniy klassifikasion davlat atestasiyasi va magistrlik disertasiyasini himoya qilishi bilan nihoyasiga yetkaziladi.

Aspirantura va doktorantura fan nomzodi ilmiy darajasi negizida uch yil davochm etadi, disertasiya himoya qilish bilan yakunlanadi. Bulardan tashqari yangi tizimda, qo'shimcha kasbiy ta'lim qayta tayyorlash va malaka oshirish masalasiga ham katta e'tibor berilishi kerak.

Bu borada ishlab chiqilgan umumiy o'rta ta'lim davlat standarti mehnat ta'limining mazmunini, ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining zarur va yetarli darajasini, o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablarini belgilab beradi.

Ta'lim mazmunining zaruriy o'zagi xisoblanmish ta'lim standarti mamlakat xududidagi turli o'quv muassasalarida ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi, o'quv yuklamalari me'yoriga keltiriladi, o'quvchilar bilimini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

O'qivchi ta'lim standarti bilan cheklanishi mumkin yoki bilimlarni chuqurroq egallash maqsadida mustaqil ravishda kengroq, chuqurlashtirilgan bilim olishga va yuqori reyting bali to'plash huquqiga ega. Natijada, qiyin yoki o'quvchi xush ko'rmaydigan predmetni o'rganishda unda standartda belgilangan me'yor bilan cheklanishga imkon beriladi. Bunda o'quvchi o'zining qiziqishi, layoqati, qobiliyatini ro'yobga chiqarish, o'zi uchun eng maqbul yo'lni ongli va mustaqil tanlash imkoniga ega bo'ladi.

Mehnat ta'limining davlat ta'lim standartlari o'quv-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari uchun majburiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablarning ochiq bo'lishini nazarda tutadi. Ta'lim oluvchilar uchun shakl va mazmun jihatidan tushunarli tarzda ifoda qilingan mazkur talablar o'quvchilar va ularning ota-onalariga oldindan ma'lum qilinadi.

«Kadrlarni tayyorlash bo'yicha milliy dasturi»da boshlang'ich tayanch va o'rta umumta'lim bosqichlari asosan, umum-mehnat va kasb ta'limini chuqurlashtirib o'rganishga qaratilishi ushbu soxaning xozirgi davrda yanada dolzarbligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda mehnat ta'limi o'zining ilmiy, nazariy va amaliy, moddiy-texnik, ijtimoiy pedagogik muammolarini hal etishda, uning an'anaviy mazmunini isloh qilishda qator nomutanosibliklar va ziddiyatli holatlar sodir bo'lmoqda:

- yangi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy tuzimda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar bilan mehnat ta'limining ilmiy-uslubiy, pedagogik va moddiy-texnik jihatdan istiqbol talablari darajasida ma'muriy ta'minlanishining nomutanosibligi, hamda Respublikada ta'lim jarayonining moddiy-texnik ta'minotini ishlab chiqaruvchi maxsus korxonalarning yetishmasligi;

-mexnat ta'limini amalga oshirishning asosiy qismi bo'lgan umumta'lim bo'g'ini bilan uzluksiz ta'limning boshqa bo'g'inlari-maktabgacha tarbiya, o'rta maxsus va oliy ta'lim hamda keyingi bosqichlari o'rtasida uzviylikning ta'minlanmaganligi; mehnat ta'limining hozirgi kundagi an'anaviy mazmuni, maqsadi, shakli, vositalari va uslublarida respublikamizning milliy, etnik, xududiy, tarixiy xususiyatlari va sharqona tafakkur mezonlarining aks etmaganligi;

- mehnat ta'limining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini xisobga olib, uni amalga oshirish mexanizmlarining pedagogik, psixologik, fiziologik va didaktik asoslarining ishlab chiqilmaganligida kurishimiz mumkin.

Nazorat topshiriklari

1.1.1.Ta'lim tugrisidagi konun kaysi yillarda Respublikamizda e'lon kilindi ?

- a) 1995 y
- v) 1996 y
- s) 1997 y
- d) 1999 y

1.1.2. Umumiy urta ta'lim maktablariga mexnat fani nechanchi yil fani sifatida kiritildi?

- a) 1950
- v) 1951
- s) 1953
- d) 1954

1.1.3. Kadrlar tayerlash milliy dasturi necha boskichda amalga oshirilmokda.

- a) ikki boskichda
- v) uch boskichda
- s) turt boskichda
- d) besh boskichda

1.2.1Shark mutaffakkirlarining mexnat tugrisidagi fikrlarini izoxlab bering.

1.2.2 Kadrlar tayyorlash milliy dasturining kandy axamiyati bor.

2 - asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi : Boshlangich sinflarda mexnat ta'limining maksad va vazifalari xakida tushuncha berish ..

Identiv o'quv maqsadlari:

2.1.Boshlangich sinflarda mexnat ta'limini ukitishning maksad va vazifalarini aytib beradilar.

2.2. Mexnat ta'limini yunalishari xakida tushuncha beradilar.

2 - asosiy masalaning bayonini:

Umumiy urta ta'lim maktablarining boshlangich sinflarida o'qitiladigan mehnat ta'limi fanining maqsadi-o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, kasblar bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, mehnatni qadrlash, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarligini 5-sinf uchun uzviy bog'lanish zaminini tayyorlashdan iborat. Bular ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar hisoblanadi. Ularda davlat ta'lim standartlariga asoslangan yo'nalishlar mavjud bo'lib, quyidagicha ifodalanadi.

(Bular ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar hisoblanadi)

Ta'limning maqsadi-o'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, kasblar asoslarini (texnologiyasini) o'rgatish, ularni kasb tanlash bilan uyg'unlashtirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarligiga zamin tayyorlashdan iborat.

Tarbiyaviy maqsad-o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini egallashlari jarayonida mehnat

va kasbga munosabatlarini yuqori axloqiy sifatlarini, mehnatsevarlik, insonparvarlik va

tadbirkorlikni shakllantirishdan iborat.

Rivojlantiruvchi maqsad mehnat va ta'lim mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy, badiiy-estetik tarbiya va ta'lim berish orqali ularning barkamol shaxslar bo'lib yetishishlariga yordam berishdan iborat.

Nazorat maqsadi-o'quvchilarning dasturda belgilangan bilim ko'nikmalarini Davlat ta'lim standartlariga binoan o'zlashtirish xolatini dastlabki oraliq va yakuniy nazorat qilishdan iborat.

+uyi sinflarda ukuvchilarning amaliy faoliyatlariga asosiy e'tibor beriladi bunga ukuv vaktining 80-85% ajratiladi. Shunga karamay dastur ukuvchilar ishlov beriladigan materialning xossalari va ularni tayerlanish usullari ishlatiladigan asboblardan foydalanish koidalari uz mexnati faoliyatlarini rejalashtirish mexnat madaniyati va albatta xavfsizlik texnikasi koidalari xakida tegishli ma'lumotlar olishlarini takazo etadi.

Mexnat topshiriklarini bajarishda ukuvchi kursatma kullanmalar uyinchoklar modellar tabiiy materiallardan bumlar yasaydilar.

Nazorat topshiriklari:

- 2.1.1 O'rta maktablarda o'qitiladigan mehnat ta'limi fanining maqsadini aytib bering ?
- 2.1.2. Mehnat ta'limi mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy, badiiy-estetik tarbiya va ta'lim berish orqali ularning barkamol shaxslar bo'lib yetishishlariga yordam berishdan iborat, bunda qaysi maqsad berilgan.
 - a) ta'limning maqsadi
 - v) tabiyaviy maqsad
 - s) Rivojlantiruvchi maqsad

d) barcha javob notugri

2.2.1.Nazorat maksadining asosiy vazifasi nima.

2.2.2 Mexnat ta'limini asosiy vazifasi nima.

2.2.3.Mexnat darslariga nimalar kiradi apirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Mehnat ta'limdan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun davlat ta'lim standartlari. «Ta'lim taraqqiyot; IV maxsus son 1999.

2.Vorobyev A. i. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash metodikasi.– T.:O'qituvchi.1980.

3.Mavlonova R. va boshqalar. Mehnat ta'limi metodikasi. – T.: O'qituvchi. 1986.

4.Mavlonova R. Mehnat 3- sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: Mehnat 1993.

5.Mavlonova R. Mehnat 4-sinf o'quvchilari uchun darslik. –T.: Mehnat.1995.

Mavzu: №2. Boshlang'ich sinflarda mexnat ta'limining mazmuni.

Ajratilgan soat – 2

Mashg'ulot turi – ma'ruza

Asoosiy masalalar

1.Boshlangich sinflarda mexnat ta'limining mazmuni.

2.Ukuvchilarii mexnat darsiga amaliy tayyorlash

Tayanch ibora va tushunchalar: Boshlangich sinf, kasb-xunar,mexnat malaka,kunikma, amaliyot, shugullanish, dars jarayoni, mashg'ulot, vosita, moxiyat, manba, ma'ruza, umumiy ta'lim, biddiy ta'lim.

1 - asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi : Boshlangich sinflarda kul mexnat ta'limining mazmuni, mexnat ta'limi yunalishlari xakida tushuncha berish

..

Identiv o'quv maqsadlari:

1.1. Mexnat ta'limining mazmunini gapirib beradilar.

1.2.Boshlang'ich sinflarda mexnat ta'limini o'qitishning o'ziga xosligini izoxlaydilar.

1 - asosiy masala buyicha ukituvchining maksadi: boshlangich sinflarda mexnat ta'limini ukitishning maksad va vazifalari,mazmuni ,shakllari xakida tushuncha berish.

1-asosiy masalaning bayeni:

1-4-sinfidagi barcha fanlarni o'qitish, o'quvchilarni mehnat qilish va kasb tanlashi bilan uzviy bog'lab tayyorlashdan iborat.

1-4-sinfda mehnat ta'limi fani mazmuni shartli ravishda umumiy mehnat ta'limi tayyorgarligi uning mazmuniga mavjud bo'lgan kasblar atroflicha

ma'lumotlari bilan tanishilgan hamda shu yoshga maxsus tayyorgarlik qismlaridan iborat. Bu qismlar har bir dars va mashg'ulotlarning tarkibiga singib ketgan bo'lib, ularni o'qituvchi va uslubchilar tomonidan ilmiy uslubiy nuqtai nazaridan hisobga olgan holda, tahmin qilib berish, mehnat ta'limi mashg'ulotlarining aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlash uchun zarur mehnat ta'limi darslarini 1-4-sinfda umumiy va badiiy mehnat kursi xalq amaliy bezak san'atlari sohasidagi ayrim kasblar asoslari bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Bu kurs bo'yicha mashg'ulotlar mazmuni bajarilayotgan mehnat jarayonining ajralmas qismi bo'lgan amaliy eskizlar, jadvallar, rasmlar, naqshlar ishlash va ayrim dizaynerlik qoidalarini o'rgatishdan iborat. Shu nuqtai nazarga asoslangan holda 1-4-sinf mehnat ta'limi o'quv fani tarkibiga quyidagi kurslari kiradi:

1. Umumiy va badiiy mehnat;
2. Amaliy ishlar tayyorlash tartibi texnologik asoslari.

Ushbu yo'nalishning har biri yuzasidan quyidagi mavzular bo'yicha o'zoro uyg'unlashtirilgan nazariy bilimlar beriladi va amaliy ish ko'nikmalari shakllantiriladi.

1. Materialshunoslik asoslari.
2. Asbob-uskunalar haqida ma'lumot va ularni ishlatish usullari.
3. Milliy xunarmandchilik kasblari bo'yicha umumiy ma'lumotlar va o'zoro turdosh kasblar bo'yicha dastlabki tayyorgarlik hamda ularni 5-sinfda o'zoro uyg'unlashtirilgan holda integrasiyalashtirib o'qitish jarayonida amalga oshirib boriladi. 1-4-sinfda ta'lim oluvchilarning ijtimoiy dunyoqarashlarini kengaytirgan holda olib boriladi. Ular kasb-hunarni ongli ravishda tanlashga yo'naltiriladilar.

Bunda o'quvchilarning tanlagan kasblariga nisbatan qiziqishlari shu kasblar ularning mayillariga muvofiq va qobiliyatlari turlariga mos bo'lishini, kasb tanlashning ongli va mustaqil ravishda amalga oshirilishini, o'quvchilar shaxsiy intilishlari va imkoniyatlarini jamiyat ehtiyojlari bilan mos kelishini ta'minlash lozim. Bu vazifa tabiiyki 1-4-sinfga kelganda hal qilinadi deb tushunilmasligi lozim. Aslida kasbga yo'naltirilishlari o'quvchilar bilan 1-sinf dan boshlab barcha fanlar mavzular uzviy bog'liqligi asosida ularga kasblar turlari bilan tanishtirish hamda tabiat, odam-texnika, odam-odam, odam-bilim tizim, odam badiiy obraz tiplarining qaysi biriga mos ekanligini aniqlash hamda shu yo'nalishida rivojlantirib borib jarayonning natijasi hisoblanadi.

1-4-sinfda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari maxalliy ixtiyojlar va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, shuningdek isdiqubol-larini belgilovchi chambarchas iboralar tavsiyalari asosida hamda maxalliy kasb-xunar kollejlari va akademik liseylarning yo'nalishlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. 1-4-sinf mehnat ta'limi darslarida o'quvchida kasb turlariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni maktab joylashgan xududdagi imkoniyat va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tanlanadigan kasb, asosida shakllantiriladi. Hozirgi sharoitni hisobga olgan holda ko'proq maktablarda mehnat ta'limi mashg'ulotlarining mazmuni asosida milliy xunarmandchilik kasblari yo'nalishida olib boriladi. Yirik sanoat ishlab

chiqarish rivojlangan xududlardagi maktablarda mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni shu sanoat sohasiga oid zamonaviy kasblarga yo'naltirish ikoniyatlari yaratilishi lozim.

Tashkiliy vazifalar. Mehnat ta'limi bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv xonasi hamda unda maxsus ish joyi tashkil qilish va ularda xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini tashkil qilish. O'quvchilarni mashg'ulotlar uchun zarur materiallar hom ashyosi, asboblari bilan ta'minlash masalalar mexanizmlari bilan ishlashlarni tashkil qilish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv rejasida mehnat ta'limi o'quv faniga 1-4 sinflarda haftasiga 1 soatdan, 5-7 sinflarda haftasiga 2 soatdan va 8-9 sinflarda haftasiga 1 soatdan, hammasi bo'lib 4-8 soat vaqt ajratiladi.

O'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida kasb-xunarga yo'nalti-rishni yanada kuchaytirish, ularni zamonaviy ishlab chiqarish asoslari, yog'ochga, metallga va gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, pazandachilik asoslari, qishloq xo'jalik asoslari, badiiy mehnat texnologiyasi va mashina elementlari yo'nalishlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash ko'zda tutiladi. Maktablarda mehnat ta'limi mazmuni asosan quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

1. I-IV sinflar keng ko'lamda ishlatiladigan turli xil oddiy materiallar (qog'oz, rangli qog'oz, karton turlari, kalka, poralan, penoplas, paxta va matolar qiyqimlari, plastilin, simlar va boshqalar) bilan tanishtirish ulardan o'yinchoqlar va oddiy buyumlar yasash, halq hunarmandchiligi to'g'risida boshlang'ich tushanchalar berish, o'quvchilarini o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga odatlantirish, uy-ro'zg'or buyumlarining kichraytirilgan nusxalarini modellar, maketlarni tayyorlashni, turli xil shakllar mehnat ta'limi darslariga ajratilgano'quv soatlarini yana bir soatga oshirish maqsadga muvofiqdir, chunki 1 soat davomida o'quvchilarga bajaradigan ishlari to'g'ri-sida umumiy nazariy ma'lumotlar berilsa, keyingi soatda esa aytilgan ish harakat usullari amalda bajariladi, buyumlarni yasash usullari, uslublari o'rganiladi.

3. V-IX sinflarda mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirish 5 asosiy yo'nalish bo'yicha tashkil etiladi va 4-7 sinflarda haftasiga 2 soat, 8-9 sinflarda haftasiga 1 soat mehnat ta'limi darslarini o'qitiladi.

1. Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi
2. Metallga ishlov berish texnologiyasi
3. Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi
4. Pazandachilik asoslari
5. +ishloq xo'jalik asoslari.

Nazorat topshiriqlari.

1.1.1O'quv rejasida mehnat ta'lim 1-4 sinflarga haftasiga necha soat vaqt ajratilgan.

A. 1 soat

V .2 soat

S .3 soat

D .4 soat

1.1.2.Uquv rejasida mehnat ta'limi bir yilga necha soat berilgan.

A. 32 soat

V. 33 soat

S. 34 soat

D. 35 soat

2.2.1. Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi mazmunini aytib bering.

2.2.2. V-IX sinflarda mehnat ta'limi mazmunini so'zlab bering

2.2.3. Boshlang'ich sinf mehnat ta'limining mazmuniga nimalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: 1997. 20-29 b.
2. O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida mehnat ta'limining o'qitilishining taraqqiyotini tizimi (konsepsiyasi). Loyiha. Z.M. Yahyoyeva va boshqalar.-T.:1994. 34-64b.
3. O'zbekiston Respublikasi hunar-texnika ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi. A.P. Xudayberganov, X. F. Rashidov.-T.:1992.
4. Vorobyev A.I. Mehnat politexnika ta'limi didaktikasi. – T.: O'qituvchi.1992.
5. Vorobyev A. I. va boshqalar. Mehnat ta'limi.-T.: O'qituvchi. 1992. 87-112 b.

3-mavzu: Boshlang'ich sinf mehnat ta'limining didaktik tamoyillari

Ajratilgan soat – 2

Mashg'ulot turi – ma'ruza

Asosiy masalalar:

1. Mehnat ta'limi tamoyillarining umumiy tavsifi.

2. Onglililik va faollilik, nazariya bilan amaliyot birligi.

Tayanch tushuncha va iboralar: didaktika, onglilik va faollilik, nazariya bilan amaliyot birligi, ko'rsatmalilik, izchilik.

I-asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi:

Talabalarga mehnat ta'limi tamoyillari to'g'risida tushuncha berish va boshlang'ich sinf mehnat darslarida ularni qo'llashga o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1.1Mehnat ta'limi tamoyillarini tariflaydilar

1.2.Mehnat ta'lim tamoyillarini sanab o'tadilar.

Mehnat ta'lim tamoyillarini bir-biridan farkini izohlaydilar.

1-asosiy masala bo'yicha o'qituvchining bayoni.

Mehnat ta'limi tamoyillari ta'lim berish nazariyasini boshlang'ich qoidalari bo'lib ular o'quv ishlarining mazmunini uning tashkiliy formalarini va o'qituvchi mehnat darsini tayyorlash va o'tkazish vaqtida amal qilish lozim bo'lgan metodlarini belgilab beradi. Mehnat ta'lim tamoyillari o'quvchilarning tarbiya maqsadlaridan kelib chiqadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki ta'lim jarayoni mohiyati turli olimlar tomonidan turlicha tushunishganligi sababli didaktikaning ayrim tamoyillarini talqin qilish ham shunnigdek ularni bayon qilish tuzilishi ham turlicha bo'ladi. Mehnat ta'limi tamoyillarini bayon qilishda uni juftlab o'rganish prinsipini to'g'ri deb xisoblamoq kerak. Shunday qilganda mehnat ta'limi didaktikaning ayrim tamoyillari o'rtasidagi muayyan obyektiv mavjud aloqani ko'rsatish imkoniyati tug'iladi.

Didaktika pedagogikaning ta'lim jarayonini umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan qismidir. Didaktika grekcha so'z bo'lib saboq bermok so'zidan kelib chiqkan. So'zma-so'z tarjima qilinganda didaktika ta'lim nazariyasi demakdir. Didaktika hususiy metodikalar bilan bog'langan holda barcha o'quv fanlari uchun umumiy qonun qoidalari belgilab beradi. Mehnat ta'limini o'qitish uslubiyati fanidan tamoyillar mehnat darsi jarayonida qanday tadbqiq etilishi ko'rib chiqamiz ular quyidagicha:

1. Onglilik va faollilik.
2. Ilmiylik sistemaliligi
3. Nazariya bilan amaliyot birligi.
4. Ta'lim va tarbiya birligi.
5. Ko'rsatmalilik
6. Mustaxkamlash va o'zlashtirish
7. Yosh va individual hususiyatlarini xisobga olish.
8. Izchillik.
9. Politexnik.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi shuni unutmaslik kerakki xar qanday amaliyot mashg'ulotda yuqorida sanab o'tilgan mehnat ta'limi tamoyillaridan bitta yoki ikkitasini emas balki o'quvchilarga o'quv materialini sifatli va to'la yetkazib berish imkonini beradigan didaktik tamoyillar sistemasiga amal qilinadi. Mehnat ta'limi o'qituvchining mahorati mehnat darsida barcha didaktik ta'moyillardan ustalik bilan foydalani bilishi va ularni to'g'ri bog'lab olib borishi namoyon bo'ladi.

Nazorat topshiriqlari:

1.1.1Mehnat ta'limi didaktik ta'moyillar to'g'risida tushuncha bering.

1.1.2.Didaktika ... so'z bo'lib saboq bermok so'zidan kelib chiqqan, tushib qoldirilgan so'zni toping.

A. Yunoncha

V. Lotincha

S Grekcha

D Barcha javob tugri

1.2.1. Didaktika so'zi so'zma-so'z tarjima qilinganda ta'lim.....si demakdir.
+oldirilgan so'zni o'rniga quying.

A. Amaliyot

V. Nazariya

S. Forma

D. Barcha javob tugri

1.2.2. Mehnat ta'limining didaktik tamoyillarini sanab bering.

2- asosiy masala bo'yicha ukituvchining maqsadi:

Talabalarga didaktik tamoyillarni tushuntirib berish ularni mehnat darslarida amal qilishga o'rgatish usullari

Identiv o'quv maqsadlari

2.1 Onglilik va faollik ta'moyillarini tushuntirib beradilar.

2.2 Ilmiy sistemaliligi tamoyilini ta'riflaydilar

2-asosiy masalaning bayoni:

1. Onglilik va faollik –o'quvchi bajarayotgan ishini mazmunini yaqqol tasavvur qilgandagina ishga ongli ravishda kirishadi. Bu prinsiplar o'quvchilar dunyoqarashini shakllantiradi.
2. Ilmiy prinsipi-xozirgi zamon texnologik ilg'or ishlab chiqarish texnologiyasi bilan tanishadilar, ilmiy prinsipi terminlarni to'g'ri ishlatishga o'rgatadi.
3. Sistemali prinsip –o'quv materialining to'g'ri taqsimlash ya'ni ma'lum texnologiyalarini bajarishga o'tishni talab qiladi.
4. Nazariya bilan amaliyot birligi –nazariyani amaliyot bilan bog'lashning har hil formalari mavjuddir (laboratoriya ishlari, ekskursiya, amaliy ishlar) bu bilan biz o'quvchilardagi bilimni sifatini oshirishga erishimiz.
5. Ta'lim va tarbiya birligi prinsipi- o'quvchi faqat bilim ko'nikma va malakalarini egallabgina qolmay balki har jihatdan mukammal tarbiyalanadi.
6. Ko'rsatmalilik prinsipi –o'qitish jarayonida o'quvchilarda malaka va ko'nikmalar xosil qilish uchun mehnat jarayonlari ko'rsatish keng qo'llaniladi. Ko'rsatmalilik o'quvchilarni qiziqishini ortiradi va qiziqtiradi. O'tilayotgan darsni yaxshi esda saqlab qolishga yordamlashadi. (plakat, namuna, deofilm)
7. O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini xisobga olish deb u yoki bu o'quvchining xususiyatlarini o'rganib amaliy ish jarayonida o'quvchilarni ulg'ayishlarga yordam beradi.
8. Izchillik prinsipi- bu prinsip didaktika qoidalarga amal qilishni talab etadi: Oddiydan murakkabga, ma'lumdan-noma'lumga. Mavzularni o'tishda yoki texnologik muammolarini yetishda o'qituvchi darsni shunday rejalashtirish kerakki o'quvchilarning hammmalariga tushunarli bo'lsin. Bunda ham o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlari hisobga olinishi kerak.
9. Politeknik prinsip-bu prinsip ta'lim tarbiyani ishlab chiqarish asoslari bilan bog'lab ya'ni tanishtirib olib borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu prinsip orqali biz o'quvchilarni xalq xo'jaligiga kerak bo'lgan kasblar bo'lgan kasblar bilan tanishtiramiz

Nazorat topshiriqlari

2.2.1 Onglilik va faolilik tamoyilini ta'riflang.

2.2.2 O'quvchilarni hozirgi zamon ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalari bilan tanishtiradilar bu qaysi tamoyilga tegishli?

a) Ko'rsatmalilik

b) Faolilik va onglilik

v) Ilmiylik

g) Izchillik

2.2.3 O'quv materialini to'g'ri taqsimlash va'ni oddiydan

murakkabga, oddiy opperasiya qiyinroq jarayonini bajarishga o'tishni talab qaladi. Bu qaysi tamoyilga tegishli?

a) Ko'rsatmalilik

v) Izchillik

s) Sistemalik

d) Politexnik

2.2.4 Izchillik prinsipiga tarif bering.

2.2.5 Didakti tamoyillarini bir biridan farqini ayting.

2.2.6 Didaktik tamoyillarini izohlang

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vorobyev A.I. Mehnat politexnika ta'limi didaktikasi. – T.: O'qituvchi.1992.
2. Vorobyev A. I. va boshqalar. Mehnat ta'limi.–T.: O'qituvchi 1992.
3. Mehnat ta'limdan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun davlat ta'lim standartlari. «Ta'lim taraqqiyot; IV maxsus son 1999.
4. Vorobyev A. I. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash metodikasi.–T.: O'qituvchi. 1980.
5. Mavlonova R. va boshqalar. Mehnat ta'limi metodikasi.–T.: O'qituvchi. 1986.
6. Mavlonova R. Mehnat 3- sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.:Mehnat 1993.
7. Mavlonova R. Mehnat 4-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: Mehnat.1995.

4-mavzu: Boshlangich sinf mehnat ta'limini o'qitish metodlari

Ajratilgan vaqt –2 soat

Mashg'ulot turi –ma'ruza

ASOSIY KO'RILADIGAN MASALALAR

Mehnat ta'limi metodlari haqida tushuncha berish.

Mantiqiy, ko'rsatmalilik, amaliy metodlar.

Instruktaj metodining mehnat ta'limida qo'llanilishi.

Tayanch tushuncha va iboralar: metod, forma, mantiqiy metod, ko'rsatmalilik metodi, mashq metodi, muammoli o'qitish metodi.

I –asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi: Boshlangich sinflarda mehnat ta'lim metodlari va o'qitish formalarining umumiy tavsifini tushuntirish.

Idintiv o'quv maqsadlari

- 1.1. Metod so'zini tariflaydilar.
- 1.2. O'qitish formalarini tavsiflaydilar.

1-asosiy masala bo'yicha o'qituvchining bayoni.

O'qituvchining o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish va o'quvchilar tomonidan ularni o'zlashtirish usullari o'qitish metodi deb yuritiladi.

O'qitish metodini dars jarayonida qanday va qaysi turini qo'llab olib borishiga o'qitish formasi deyiladi. O'qitish forma va metodlari ta'lim to'g'risidagi qonun kadrlar tayyorlash milliy dasturi fanning oldiga o'qitish forma metodlarini takomillashtirish muammolarini qo'ymoqda. Zamonaviy fan texnika taraqqiyoti o'zgarib borgan sari mehnat ta'limi metodlarining yangi usullari paydo bo'lmoqda masalan oldingi vaqtda o'qitishning dogmatik yod olish usuli bo'lgan hozirgi kunda esa yangi pedagogik texnologiyalar zamonaviy pedagogik texnologiyalar muammoli ukitish axborot texnologiyalari kirib kelmokda o'quvchilarga yangi bilimlar berish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish bilimlarni amalda qo'llash hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Mehnat ko'nikma va malakalarni shakllantirish mehnat metodikasida juda katta o'rin tutadi. Mehnat ta'limi darslarida amaliy mashg'ulotni bajarish kuprok vakti 80-85%ni tarshkil etadi.

Mehnat ta'limi metodlarini butun sistemasini 5 gruppaga bo'lish mumkin. Ulardan har biri o'z navbatida bir qancha metodlarini o'z ichiga oladi.

- I- og'zaki metodlar.
- II- Ko'rsatmali metodlar
- III- Amaliy metodlar
- IV- Muammoni o'qitish metodlari
- V- Bilimlar mehnat ko'nikmalari va malakalarini tekshirish metodlari.

Shuni ta'kidlash kerakki mehnat jarayonida umumiy didaktik harakterga ega bo'lgan ko'pgina mashg'ulotlarga foydalanadi. Biroq mehnat usullarini amalga ko'rsatish mehnat usullari bajarishga oid mashqlar amaliy ishlarni bajarish kabi metodlar faqat mehnat ta'limga xos bo'lgan metodlar.

Nazorat topshiriqlari

- 1.1.1. Metod tushunchasiga ta'rif bering.
- 1.1.2. Mehnat ta'limi metodlarining butun sistemasini necha guruhga bo'lish mumkin.

A) 3ta sistemaga

V) 4ta sistemaga

S) 5ta sistemaga

- 1.1.3. Mehnat ta'limi metodlarining butun sistemasi guruppalarga bo'linishini sanab bering
- 1.1.4. Mehnat ta'limi darslari necha foizi amaliy ishni tashkil etadi?

A 70-80%

V 75-85%

S 80-85%

- 1.1.5. O'qitish formalarining izohlang?

2-asosiy savol bo'yicha o'qituvchining maqsadi

Talabalarga mantiqiy ko'rsatmalilik, amaliy muammoli ta'lim metodlari to'g'risida tushuncha berish va bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish

Identiv o'quv maqsadlari

2.1. Mantiqiy metodlari to'g'risida bushuncha beradilar

2.2 Ko'rsatmalilik metodlarini sanab o'tadilar

2.3 Amaliy metodlarni izohlaydilar.

Asosiy masalani bayoni.

Mehnat ta'limi metodlari quyidagilardir

1. Mantiqiy metodlar.

A) Og'zaki bayon qilish

B)Suxbat

2...Ko'rsatmalilik.

A)Namoyish qilish

B)Amaliy ko'rsatish

V)Ekskursiya

Amaliy metodlar

A)Labaratoriya amaliy metodlari

B)Mashq metodi

V)Texnik adabiyotlar va hujjatlar bilan ishlash

G) Instruktaj metodi

Muammoli o'qitish

Programmalashtirilgan ta'lim

Mantiqiy o'qitish metodlarini o'ziga xos xususiyatlari shuki, unda o'qitish jarayonini o'qituvchining mehnat usullarini namoyish qilish va o'qituvchilarni unga tahlid qidish asosida tashkil topadi.

Asosiy shartlar quyidagilardan iborat:

Topshiriqni aniqlash, uni maqsadi va bajarishni tushuntirish.

O'qituvchilarda zarur bilimlarni mavjud bo'lishi.

Ta'lim metodi va usullarini shakllantirayotgan ko'nikma va malakalarni xusuisiyatlariga moslash.

Instruktajning samaradorligi.

Mashqlar yetarli miqdorda bo'lishi.

O'quvchilar faoliyatini o'z vaqtida obyektiv baholash, o'quvchilarni baholash natijalaridan xabardorligi.

O'quvchilar faoliyatini faol xarakteri.

Materialni og'zaki bayon qilish bu o'quv materialni shunday bayon qilishni nazarda tutadiki buning natijasida Yangi texnika va mehnat tushunchalari ochib beriladi. Mehnat va texnologiya jarayonlari haqidagi texnik iqtisodiy ma'lumotlar o'rganib chiqiladi, umuman mehnat usullari va topshiriqlarini bajarish yuzasidan tushuntirishlar beriladi. Bu metod asosida o'qituvchining jonli so'zi yotadi. Bu esa o'quvchilarga kuchli imoisiolnat ta'sir ko'rsatadi ularning tasavvurlarini boyitadi. Ijodiy fikr yuritishga undaydiu ko'pgina shahsiy ijobiy sifatlarni tarkib toptirishga yordam beradi.

Bayon qilinayotgan material o'quvchilarini tushunishi uchun qiyin bo'lgan Yangi ma'lumotlar habar qilingan. Mehnat usullarini bajarish yo'llarini tushuntirib berish talab qilingan hollarda og'zaki bayon qilish metodlardan foydalaniladi. O'qituvchi og'zaki bayon qilish jarayonida o'z yozuvlari xisoblab eskizlardan keng foydalanadi.

O'quv materialini bayon qilishmuntazam, mantiqan, izchil va tuggalangan bo'lishi kerak. Bunda o'quvchilar materialini oson anglab olishi uchun o'qituvchi vaqti-vaqti bilan o'z tushuntirishini o'quvchilarga savollar berish bilan bulib turishi ularning uzlashtitishiniva dikkatini tekshirish kerak

Suxbat bu mexnat talimining shunday usullarini unda ukituvchi tugri kuyilgan savollar yerdamida ukuvchilarda ilgari uzlashtirilgan bilim-larini esgatushiradi vash u asosda mustakil ravishda Yangi bilimlar xosil kiishga undaydi mexnat talimi metodi bulgan suxbatdan yangimaterialni urganish vaktida shuning uchun foydalaniladiki uzlashtirilgan bilimlar va Amaliy tajriba uning bazasi bulib xizmat kilishi kerak Bilimlar amalis tajribalar mavxum bulmasdan mazmun jixatidan xam xarekter jixatidan xam boglangan bulishi yani umumiylikka ega bulishi lozim Ukuvchilarning Yangi ukuvmaterialini suxvat usuli bilan urganishi ukituvchidan Mashg'ulotga puhta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Demak mehnat darslarida foydalanadigan suxbat metodining avzalligi shundaki u o'quvchilarning bilishga oib qibiliyatlarini o'rganishga yordam beradi ularning fikrini nixoyatda faolashtiradi.

II ko'rsatmali metodlarni asosan o'rganiladigan obyektlar jarayonlar va ularning tasirini namayish qilish va o'quv qurollari bilan ishlash kabi usllari orqali amalga oshiriladi ko'rsatmaliliylik ko'pincha o'quv materialiga illustrasiya sifatida emas, balki uning o'zi bilan bilm manbai bo'lib ko'p hollarda esa ko'nikma va malakalarini shakllantirish usuli bo'lib hizmat qiladi.

Amaliy metodlar instruktaj va mashqlar orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazarda instruktajga quyidagi 2 talablarni qarab chiqish maqsadga muvofiq.

1. Instruktaj jarayonida talimining har xil metod va usullarini omilkorlik bilan kombinasiyalash.
2. Instruktaj mazmunini o'qituvchi asoslashi
3. Instruktajda shunday ko'rsatmalar bo'lish kerakki ukuvchilar ular yerdamida uz faoliyatlarini nazorat qila olish lozim.

Instruktajni quyidagilarga ajratamiz kirish, joriy va yakuniy

Muammoli ta'lim g'oyalari har xir sabablarga ko'ra xali mehnat ta'limida keng qo'llanilayapdi. Buning sababi mehnat darslarida muammoli ta'limning samarasi yo'llarni izlash mumkin. O'quvchilar hamma o'quv materiallarini muammolarini mustaqil xal qilishi yo'li bilan o'zlashtirish uchungina muammoli ta'lim deyiladi.

Muammoli Amaliy topshirishqlar ham ma'lum va nomalumni o'z ichiga oladi, ammo harakat usullari bilan bog'liq bo'ladi. Bunda topshiriqlarni bajarish natijasida o'quvchi Yangi harakat usulini topishi yoki ma'lum usulni Yangi sharoitlarda qo'llash kerak. Mexnat talimi jarayonida ukitishning xar xil metodlaridan foydalaniladi. Ta'lim metodlarini tanlash avvalo ukuv matiralining va ukuv vazifalari xarakteriga boglik. Ilmiy texnik tafakkurning borgan sari usuvi va yoshlarning fan texnikaning jushxin rivojlanishida faol ishtirok etishlari fakat talim mazmunini emas, balki ukitish jarayoninig usuli va tashkil etilishini, ukishga kizikishni, ijodiy kobiliyatni, egalagan bilimlarni amalda kullay bilishni rivojlanish maksadlarida yanada takomillashtirishni xam talab kiladi.

Ukitish metodlari – bu ukituvchi raxbarligida ukuvchilarning bilim, kunikma va malakalarni egalashlariga erishiladi.

Ukituvchi uz amaliyotida ukitishning xilma xil usilaridan foydalanish mumkun. Bita darsning uzida turli usillarning kulashi mumkin.

Talim metodlari kuydagi asosiy talablarga mos kelishi kerak.

1. Mazmunning tugriligi. Uktuvchilarga aytiladigan fakitlar ukuv pragrammasining mazmuniga mos kelishi va ilmiy asoslangan bulishi kerak. Kup mikdordagi faktlarga kizikib ketmaslik lozim.
2. Aniklik va isbotlilik. Mexnat ta'limining mazmuni odatda ukuvchilar tanishadigan nazorat koidalarni va mexnat usullarni bajarish koidalarini kiska, ammo anik va ishonchli asoslash emosionnaliggi.
3. Bayonning emosionalligi. Agar ukituvchi uzi bayen kilayetgan materialga lokayd munosabatda bulsa, bu xol ukuvchilarga xam utadi va aksincha, ukituvchi materialni ta'sirchan yusinda bayen kilsalar faktlar tugri tanlash bunga yerdam beradi, u xolda ukuvchilar yangi ma'lumotlarni yaxshi idrok kiladilar va xotiralarida yaxshi saklab koladilar.

Ukituvchi nutk madaniyati, uning ukuvchilar tushuna oladigan bulishi zarur. Ukitish metodlari doim xam zamonaviy maktablarda kullanganidek bulavermagan. Maktab rivojlanib borgan sari ukitish metodlari xam uzgarib borgan. Ogzaki bayen kilish metodi ikki formada mavjud bulishi mumkin: 1.Monologik bayen kilish, bunda fakat ukituvchi gapiradi, ukuvchilar esa uning nutkini idrok etib, anglab oladilar. Kup mexnati darslarida u tushuntirish va xikoya kilish, instruktaj kurinishida buladi. 2. Diologik bayen bu – ukituvchi va ukuvchilarning uzaro suxbatidir.

Xikoya kilish – bu programma materialini jonli va obrazli bayen kilishdir. Bu xolda yangi bilimni ukituvchining uzit beradi. Ba'zan suxbat davomida ukuvchilar tushuntirilayetgan narsalarni kanchalik uzlashtirayetganliklarini aniklash maksadida ularga savollar bilan murojaat etish maksadga muvofikdir. Xikoya

agarda bajarilgan ishlar, natural namunalar, rasmlar, fotosuratlar va shu kabilarni kursatib kilinsa, anchagina tushunarlirok buladi. bu urinda tushuntirayetganida kursat va tushuntir degan koida bajarishadi. Yangi materialni bayen kilishda ukuvchilarning bir xil emasligini nazarda tutish lozim. Tushuntirishda bush uzlashtiruvchilarga aloxida e'tibor berish lozim. Xikoya kilish jarayenida ularning idroklarini aktivlashtirish maksadida tushuntirilayetgan material yuzasidan ularga bir-ikkita savol berish mumkin. Ukituvchi xikoyasi kuyidagi talablarga javob berishi mumkin: U mazmuniga kura programmada nazarda tutilgan barcha ukuv materialini anik va tulik kamrab olishi kerak: Bayen etilishi shakliga kura – anik, tushunarli, mantikiy, iboralari sodda bulishi zarur. Material kizikarli va ukuvchilarning fikrini aktivlashtiradigan, dikkatini yengillikning asosiy elementlariga jalb kiladigan bulishi lozim:

Xikoyada ukituvchi ukuvchilarbop fakt va tushunchalarga asoslanishi lozim. Nutk sodda va anik bulmasa, ukuvchilarning xikoyaga, keyinchalik predmetga bulgan kizikishi sunishi mumkin. Ukuvchi xikoyasida ukuvchilarning nutkini yangi ibora va suzlar bilan boyituvchi yangi suz va terminlar bulishi, ularning ma'nosini shu vaktning uzida tushuntirmogi shart.

Xikoya jarayenini ukuvchilar yaxshirok tushunib olishlari uchun kurgazmali kurollar – tikuvchilik maxsulotlari, natural predmetlari, rasmlar, fotosuratlar vositasida ukituvchi vokeani namoyish etib bormogi darkor.

Instruktaj – mexnat ta'limining samarali metodlaridan biridir. Instruktajning maksadi ukuvchilarning amaliy faoliyatlarini uyushtirish va yunaltirish orkali ularning amaliy-bilim, kunikma va malakalarga ega bulishlari xamda ularda mexnatga ongli ijodiy yondoshishni tarbiyasini ta'minlashdir.

Instruktaj olgan ukuvchiga ishning maksadi va usullari ravshan bulishi kerak. instruktajning vazifasi ukuvchilarga texnologik jarayenni ongli va tugri tanishtirishni urgatishdan iboratdir.

Instruktaj olgan ukuvchilar: ishni rasional usullarda va tugri izchillikda bajara bilishlari, mexnatni tashkil etishning belgilangan formalari va xavfsizlik texnikasi koidalarining amalga oshirilishlari, yul kuyilgan xatolarni ish jarayenidda tuzatishlari va ularning paydo bulish sabablarini bartaraf eta bilishlari kerak.

Instruktaj ogzaki va yezma, individual, zveno yeki gruppavoy bulishi mumkin. Ogzaki instruktaj suxbat yeki xikoya kilish metodi orkali berilishi mumkin. Suxbat va xikoya kilish jarayenida xam predmetlar yeki ish usullariga namoyish etilishi mumkin.

Suz va kursatishning ir-biriga munosabati ishning tugri va murakkabligiga kura xal etiladi. Masalan, kuylak tikish ishning tashkillashtirilishi nazarda tutilganda asosiy ish tushuntirishga, choklarni tikishga urgatishga kerakki, biror chokni kanday tikish kerakligi kursatilayetganda bu xarakatning maksadi albatta tushuntirilishi lozim.

Instruktajdan sung, ukuvchi ekologik bilimlarini amaliy mexnat xarakatlariga tadbik etishi darkor. Birok barcha ukuvchilar xam instruktajni bir xilda idrok etmaydilar, birlari kerakli xarakatni ogzaki bayendan tasavvur kila olmaydilar, ikkinchilariga kursatish, tushuntirish kerak buladi, ukuvchilarga

tushuntirish vaktida xamma narsani tushunadilar, biroq bu ishga kirishganlariyek, ularni unutadilar. Bu xolat ulardagi bilish tipining xususiyatlariga xamda birinchi va ikkinchi signal sistemalari munosabatlarining xususiyatlariga yukoridir.

Topshirikning yaxshirok onglanishi va bajarilishi uchun instruktaj jarayenida ukuvchilarni bulajak ishini planlashtirishga jalb kilishi, topshirikni bajarishga alokador masalalarni ular bilan muxokama kilish, instruktaj utkazishda ukuvchilarni dikkatini uta muxim texnologik jarayenlarga jalb kilishi.

Nazorat topshiriqlari

2.1.1. Mantiqiy metodlar to'g'risida tushuncha bering.

2.1.2. Ko'rsatmalilik metodini sanab bering.

2.1.3. Amaliy metodlarni izohlang.

2.1.4. Laboratoriya va amaliy metodlarni tariflang.

2.1.5. Mashq metodini izohlang.

2.1.6 Muammoli ta'lim deganda nimani tushunasiz.

3-asosiy masala buyicha ukituvchining maksadi: instruktaj metodi xakida tushuncha berish va amalda kullashga urgatish .

Identiv ukuv maksadlari:

3.1. Instruktaj metodini ta'riflaydilar.

3.2. Instruktaj turlarini ta'riflab beradilar.

3.3. Instruktajni bir-biridan farkini kursatadilar.

3-asosiy masalaning bayeni:

Instruktaj – mexnat ta'limining samarali metodlaridan biridir. Instruktajning maksadi ukuvchilarning amaliy faoliyatlarini uyushtirish va yunaltirish orkali ularning amaliy-bilim, kunikma va malakalarga ega bulishlari xamda ularda mexnatga ongli ijodiy yondoshishni tarbiyasini ta'minlashdir.

Instruktaj olgan ukuvchiga ishning maksadi va usullari ravshan bulishi kerak. instruktajning vazifasi ukuvchilarga texnologik jarayenni ongli va tugri tanishtirishni urgatishdan iboratdir.

Instruktaj olgan ukuvchilar: ishni rasional usullarda va tugri izchillikda bajara bilishlari, mexnatni tashkil etishning belgilangan formalari va xavfsizlik texnikasi koidalarning amalga oshirilishlari, yul kuyilgan xatolarni ish jarayenidda tuzatishlari va ularning paydo bulish sabablarini bartaraf eta bilishlari kerak.

Instruktaj ogzaki va yezma, individual, zveno yeki gruppavoy bulishi mumkin. Ogzaki instruktaj suxbat yeki xikoya kilish metodi orkali berilishi mumkin. Suxbat va xikoya kilish jarayenida xam predmetlar yeki ish usullariga namoyish etilishi mumkin.

Suz va kursatishning ir-biriga munosabati ishning tugri va murakkabligiga kura xal etiladi. Masalan, kuylak tikish ishning tashkillashtirilishi nazarda tutilganda asosiy ish tushuntirishga, choklarni tikishga urgatishga kerakki, biror chokni kanday tikish kerakligi kursatilayetganda bu xarakatning maksadi albatta tushuntirilishi lozim.

1. Asosiy masala buyicha ukituvchining maksadi:

Ukuvchilarga mehnat darslarida iktisodiy bilim berish va ularni kunlik va malakalarini shakllantirish.

Identiv ukuv maksadlari :

1.Mexnat darslarida iktisodiy bilimni tushuntiradilar.

2. Iktisodiy tarbiyaning ahamiyatini aytib beradilar.

1-asosiy masalaning bayon:

Tarbiya mazmuni va madaniyatini anglash xamda tushunish borasida talabalarga kuyilgan maksad vazifalarda iktisodiy tarbiyaning bosh maksadini uzbekiston respublikasi prezidenti I.A.Karimov kuydagicha belgilaydi «jamiyatimiz xayotida xalq etiluvchi masalalar ichida malumot olishda tarbiya tizimini kardinal tarzda kayta kurish buyicha konun loyixalari yangi davr talab darajasiga kutarish imkoniyatlarini berish bilan birga yaxshi rivojlanayotgan kelgusi avlodni tarbiyalashdan iboratdir »,deb bejiz takidlanmagan.

Beshta asosiy koida Uzbekiston davlat kurilishi va iktisodiyotini islohat kilish dasturlarining uzagidir. Ularning mohiyati kuydagicha:

birinchidan, iktisodiy islohatlar xech kachon siyosat ortida kolmasligi kerakki biror mafkuraga buyindirishi kerak emas. Buning manosi shuki iktisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashki iktisodiyot munosabatlarini mafkuradan xoli kilish kerak;

ikkinchidan, davlat boshi islohatchi bulishi lozim. U islohatlarning ustivor yunalishlarini belgilab berishi, uzgartirishlar siyosatini ishlab chikishi va uni izchillik bilan utkazishi, jaxolatparaslar va konsevatorlar karshiligini bartaraf etish shart;

uchinchidan, konun,koidalarga rioya etish ustivor bulishi lozim. Buning manosi shuki demokratik yul bilan ka'bul kilingan yangi konstitutsiya va konularni xech itisnosiz xamda xurmat kilishi va ularga ogishmay rioya etish lozim;

turtinchidan, axolining demografik tarkibini xisobga olgan xolda kuchli ijtimoiy siyosatni utkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vakta xolini ishtimoiy ximoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar kurilishi lozim. Bu

bozor iktisodiyoti yulidagi eng dolzarb vazifa bulib, keldi va bundan keyin xam shunday vazifabulib koladi;

beshinchidan, bozor iktisodiyotiga utish eng obyektiv iktisodiy konunlarning talablarini xisobga olgan xolda, utmishdagi «iktisodiy sakrashlar», siz yani evolyusiyon yul bilan , puxta uylab, boskichma-boskich amlga oshirilishi kerak. Shu isloxatlar besh tamoyilning ta'limiy va tarbiyaviy asosida iktisodiy ma'naviyat, ma'naviyat boshkaruv, ma'naviy-xukukiy, ijtimoyi-ma'naviy bozor mnosabati ma'naviyati turadiki, ular yosh avlodni mustakillikning kelajagi uchun xar tomonlama barkamol tarbiyalahda muxim axamiyatga egadir. Shuni oloxida ta'kidlash kerakki, isloxatlarnig besh tamoyili

ta'lim-tarbiya, dialektik birlikda, yani uygun xolda olib bormokda Isloxatlarning ikkinchi boskichida milliy ma'naviyatni yuksaltirish yulida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlar shu fikrimizning yakkol dalilidir. Ajdodlarimiz eng avolo mablagni yani xalol va pok yulbilan topish tugrisida ugit berishgan. Shuningdek shu mablagni tugri sarflash xakida sabok berishgan. Iktisodiy tarbiya asosida kuydagi fikrlar mavjud :

Darhaqiqat, peshona teri bilan jamg'arilgan pul noto'g'ri xarj etils, ortiqcha isrof qilinsa, bu moddiy qashshoqlikka yetaklaydi.

1. Tarbiya maksadining real yoki vokeyligi. Bugungi kunda rial maksad-bu insonni xar tamonlama kamol topishi, uning kobilyati va undagi talan-ollox bergan iloxiy kuch

2. Iktisodiyotda xodimlarning birgalikdagi faoliyati. Iktisodiyotda xodimlarning birgalikdagi , xamkorlikdagi faoliyati natajsida kuzlnagan maksadga erishish shubxasizdir. Shuningdek iktisodiyoda insonlarning birgalikdagi faoliti tufayli tajribalar ortadi va takomillashadi.

3. Uzini-uzi anglash. Inson xayotining turli-tuman mujizalari, cheksiz xolatlariga, etikodli iktisodchi, demokratik nuktai nazardan kattiy ishongan xolda karashi, shaxs tarbiyasini shakillantirishning yuksalishini ifoda etadi. Iktisodiy tarbiya nazaryasida insonning uzini –uzi anglashi bilan birga fukorolik burchini xis etgan xolda profisional xamda axlokiy tamondan uzini tutishi zarur.

4. Tarbiyaning shaxsiy yunalishi. Butun tarbiya kasb-xunar kollejining markazida dasturiy tadbirlar emas, balki insonning uzi va uning oliy maksadi turadi. Xayotda yoshlarning nimalarga kizikishi, intilishi kelajakda kim bulishi, kaday mutaxasis bulib yetishishi, tarbiyachilar tomonidan e'tiborga olinsa va ular kullab kuvatlansa, tarbiyaning shaxsiy yunalishi shunchalik sama ralli bulaldi.

5. Ixtiyoriylik. Inson uzining ixtiyoriy erksiz tarbiya goyalari va namunalari moxiyatini anglab yetishi lozim. Masalan : Chingiz Aytmatovning asli kasbi vrach. Aslida uni yozuvchi sifatida butun jaxon taniydi.

6. Jamoatchilik yunalishi. Kayerda va kachon tarbiya yaxshi yulga kuyilgan bulsa, insoning xayotidagi eng muxim va bosh bulgan uchta yunalishni belgilaydi: xayotda fukorolik, ishchi-xodim, oilaga mexribon bulishi kerak.

7. Fukorolik. Fukorolik ma'sulyati va majburyati –bu avvalam bor birinchidan, Vatan mamlakat oldidagi ma'sulyatni xis etishi va uni amalda

kursatishi, ikkinchidan jamiyat oldidagi mukaddas burchi, uchinchidan ota-onalar oldidagi ma'sulyatni xis eta bilish bu xam karz xam farzdir.

Nazorat topshiriklari:

- 1.1.1. Iktisodiy bilim nima ekanligini tushunitirib bering.
- 1.1.2. Iktisodiy tarbiyaga nimalar kiradi .
- 1.1.3. Iktisodiy tarbiyaning asosi necha kisimlarga bulinadi.
 - A. 6ta
 - V. 4ta
 - S. 2ta
 - D. 5ta
- 1.2.1. Iktisodiy tarbiyaning kandy axamiyati bor.
- 1.2.2. Iktisodiy tarbiyaning vazfalari nimalardan iborat.

2. Asosiy masala buyicha ukituvchining maksadi: Ukuvchilarga tejamkorlik xislatlarini singdirish xakida tushuncha berish, ularni kunikma va malakalarini shakillantirish.

Identiv ukuv maksadlari:

- 2.1. Iktisodiy bilim tushunchalarida tejamkorlik xakida gapiradilar.
- 2.2. Tejamkorlikka nimalar kirishini sanab utadilar.
- 2.3. Iktisodiy bilim tushunchasida tejamkorlikning axamiyatini aytadilar

2-asosiy masalaning bayoni:

Tejamkorlik moddiy va iktisodiy farovonlik manbalaridan biridir. Tejamkorlikda xikmat kup. Bu xikmat oila xayotida xam, davlat xazarasini boyitib, xalk farovonligini oshrishda xam katta axamiyatga egadir.

Demak yoshlarda tejamkorlik odobini tarbiyalash, uni tarkib toptirish iktisodiy-ma'naviy axamiyat kasb etadi. Tarbiyaning bu soxasi kelajagi buyukdavlatning ravnaki va tarakiyotiga zamin xozirlaydi.

Shungdek mexnat, tejamkorlik tugrisidagi xalk makollari ,shark mutafakkirlarining xikmatli suzlari bolalar ongiga yangi mazmun bolalar ongiga singdirilib boriladi. Umuman olganda , o'zbek tarbiyashunosligida mehnat tejamkorlik likka vaasb hunarga o'rnatish bola kamolotining bosh omili sifatida talqin etilgan ,Ular orqali bolalarmehtini vamhnatahlini qadrlashga o'rgatilgan .Masalan*Do'lanani ko'rganda tog' qismdan chiqmasin * maqolida mashaqqatli mehnat orqasidan bunyodga kelgan narsaning qadr qimmatini bil , uni ardoqla ,teja ,nes nobud qilma * degan fikr mujassam.

Yoshlarni tejamkorlikka iqtisodiy jabhada ishbilarmonlikka o'rgatish masalariga azaldan jiddiy e'tibor qaratilgan . Ayniqsa ,bozor iqtisodiyotida bosqichm bosqich o'tilayotgan hozirgi davrda har bir oilada tejamkorlik bilan ish olib borish taqozo etilmoqda Shunday ekan iqtisodiy muammolarni hal etishda ota bobolarimizning tarixiy tajribalariga suyangan holda g'arakat qilish maqsadga muvofiqdir. Iqtisod ,deb yozgan edi Abdulla Avloniy pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmoqqa aytilur.

Mol qadrini biluvchi kishilar o'ransiz yerga bir tiyin sarf qilmas ,o'zni kelganda pulni ayamasa . Saxovatning ziddi baxillik kabi iqtisodning ziddi isrofdir . Olloh ta'ollo isrof qiluvchilarni suymas.Iqtisodga rioya qilgan kishilar hamma vaqt tinch rohatda yashar lar. Arilar qish kunlarida yemak uchun bol to'plaganidek,odamlar boshlariga keladurgan kunlarini o'ylab yuk va pul yig'urlar „Toma toma ko'l bo'lur “ „Har bir narsa ozdan ko'payur “ deb bekorga aytishmagan aziz halqimiz .

Yuqoridagi fikrlardan ma'lumki oiladi mehnat evaziga ortirilgan barchia narsalarga tejam va jonkuyarlik bilan munosabaida bo'lish natijasida farvonlikka erishish mumkin . Buning uchun oilada ro'zg'orni tejamli yuritishning o'ziga xos maktabini tashkil etish lozim.Bunda oila a'zolariayniqsa farzandlar iqtisod tejamkorlik sabablarini bilib oladilar. Tejamkorlik azal azaldan fazilat sanalgan. Insoniyatazkur muammoga irqi dini millatidan qat'i nazar ijobiy munosabatda bo'lgan va bu fazilatni yoshlarda kamol toptitirish barcha imkoniyatlardan unumli foydalangan mazkur muammomo barcha din peshvolarining jumladan islom dini g'oyalarining tarbiyalovchilik mohiyatini tarannum etgan mutafakkirlar asarlaridi ham o'z ifodasini topgan.Rizouddin ibn Faxriddin „Tarbiyali xotin”risolasida shunday yozadi „Uy ichida bo'lgan harajatlar va xizmatlar xotinlar qo'lidan o'tgani uchun erlardin ortiq e'tibor ila turmoqlari lozim bo'lur.”

Tejamkorlik moddiy va iqtisodiy farovonlik manbalaridan biridir. Tejamkorlikda hikmat ko'p ,bu hikmat oila hayotida ham, davlat xazinasini boyitib ,halq farovonligini oshirish uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Demak ,yoshlarda tejamkorlik odobini tarbiyalash,uni tarkib toptirish iqtisodiy ma'naviy ahamiyat kasb etadi.Zero,tarbiyaning bu sohasi kelajagi buyuk davlatning ravnaqi va tarqiyotiga zamin hozirlaydi, yorqin yo'lini ko'rsatib beradi. Tejamkorlik tarbiasini maktabgacha yoshdagi bolalar dan boshlash lozim. Ularda bunday tarbiya jarayoni asosan turli o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Umum ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida tejamkorlik ko'nikma va malakalarini hosil qilish turli tuman o'yinlar ,sinfdan tashqari tarbiyaviy soatlardagi amaliy maqsadli mashg'ulotlar orqali ,shuningdek mehnat ta'limi darslarida amalga oshirish mumkin. Halqimizda „Qush uyasida ko'rganini qiladi “ degan hikmat bor. Xuddi shuningdek, kichkintoylar ham oiladava ta'lim tarbiya masknida ko'rganlariga amal qiladi. Shu o'rinda ularning fe'l atvorlari sinchkovlik, kuzatuvchanlik, taqlidchilik xususiyatlarini hamisha esda tutish zarur. Bu ota onaning yoxud o'qituvchi tarbiyachilarning kichkintoylarni tejamkorlik ruxida tarbiyalashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat topshiriklari:

2.1.1. Iktisodiy tarbiyada tejamkorlik deganda nimani tushunasiz.

2.1.2.Bugungi kun yoshlarida tejamkorlik tarbiyasi kanday olib borilayapdi.

2.2.1 Boylik va mol-mulkka sizning mnosabatingiz kanday.

2.2.2Tejamkorlikka nimalar kiradi .

2.2.3.Tejamkorlikning kanday foydali tomonlari bor.

Adabiyetlar ruyxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi hunar-texnika ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi.
A.P. Xudayberganov, X. F. Rashidov., - Toshkent.: 1992, 24-42 betlar.
- 2.Vorobyev A.I. Mehnat politexnika ta'limi didaktikasi. – Toshkent.:
O'qituvchi, 1992. 68-92 betlar.
- 3.Vorobyev A. I. va boshqalar. Mehnat ta'limi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
87-112 betlar.
- 4.Mehnat ta'limdan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun davlat ta'lim
standartlari. «Ta'lim taraqqiyot; IV maxsus son 1999.
- 5.Vorobyev A. i. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash metodikasi. –
Toshkent: O'qituvchi. 1980. 110-140 betlar.
- 6.Mavlonova R. va boshqalar. Mehnat ta'limi metodikasi. – Toshkent:
O'qituvchi. 1986

MAVZU: YuMShOQ O'YINChOQ TURLARI VA ULARNING AHAMIYATI .

Ajratilgan soat – 2
Mashgulot turi - amaliy

Asosiy masalalar:

1. Yumshok uyinchoklar turlari va ularning ahamiyati .
- 2.Yumshok uyinchoklarni tikish tartibi.

Tyanch tushuncha va iboralar: Yumshok uyinchoklar, andoza, material, kaychi, choklar, tikish, turlar, kolip, bugim, burchak, .

1. Asosiy masala buyicha ukituvchining maksadi: ukuvchilarga mexnat darslarida yumshok uyinchoklar tayyorlash bilan tanishtirish xamda, ularni kunikma va malakalarini shakillantirish.

Identiv ukuv maksadlari :

- 1.Yumshok uyinchoklarning ahamiyatini aytadilar.
2. Yumshok uyinchoklar tayyorlashni kursatadilar.

1-asosiy masalaning bayoni:

O'yinchoq Bolalar o'yinlari uchun yaratilgan maxsus predmetdir. Biroq bu real predmetning kichraytirilgan nusxasi emas, balki uning shartli tasviri,o'ta umumlashtirilgan badiiy obrazidir. Ifodali shakl,harakatlilik, ravshanlik va rangning shartliligi bularning barchasit bolani o'yinchoqqa jalb etadi. U bilan o'ynash ishtiyoqini tug'diradi, bir so'z bilan aytganda.o'yinchoq bola quvonchining manbaidir.

Yumshoq o'yinchoq bilan turli yoshdagi bolalar shug'ullanishlari

mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yumshoq o'yinchoqlari ular o'yinlarining qiziqarli o'tishiga vosita bo'lsa, katta yoshdagi bolalarning yasaganlarini esa uyni bezatib qo'yishga, tug'ilgan kunlarida, bayramlarda do'stlarga maktablarning kuni uzaytirilgan guruhlariga, mehribonlik uylariga sovg'a o'rniga berish uchun ishlatiladi.

Yumshoq o'yinchoqni yaashni, uning yasash texnologiyasi uslubini tayyor shablon sosida boshlash mumkin. O'yinchoq andoza asosida tayyorlanishiga qarab, o'quvchilarning intilishlarini, g'oyalarini rag'batlantirish kerak. O'yinchoq tayyorlanishning boshlang'ich pog'onasidayoq o'quvchi talabalarga ma'lum bir g'oyalarni amalga oshirishni o'rgatish kerak. Shundagina o'zlari qiziqarli o'yinchoqni tayyorlay oladilar. Talablar tayyor andozalardan ham o'zlari yangi o'yinchoq modelini yaratish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tikish uchun turli gazlama va materiallar kerak bo'ladi. O'yinchoqlarga gazlama tanlashda ranggiga, tolaviy tarkibiga, qalin yupqaligiga e'tibor berish lozim. Yumshoq o'yinchoq uchun iloji boricha yangi gazlama yoki avvaldan yuvib, dazmollangan satin, barxat, shtampil, raxmoq, chit, junli mo'ynali gazlamalar tavsiya etiladi. Quida ish jarayonida kerak bo'ladigan materiallar keltirilgan

Sun'iy mo'yna (tabiiy mo'ynadan foyalanilmagani ma'qul.)

Tabiiy va sun'iy (iloji boricha cho'zilmaydigan) gazlamalar.

Har turli lenta, tasma to'rt rezinka va boshqa ayda bezaklar.

Oq, qora va turli randagi charm (tabiiy yoki sun'iy) yoki kleyonka bo'laklari.

O'yinchoqlar ichini to'ldirish uchun paxta, sintepon, sintepux, porolon va boshqa materiallar.

Turli o'lchamdagi tugmachalar, munchoqlar ishlatilmaydigan bijuteriya (zirak, taqinchoq)lar.

Mustaxkam g'altak ipar (gazlama ranggiga moslab olinadi).

1,5 2,0 sm qalinlikdagi alyumin yoki mis simlar (o'yinchoq qismlarini biriktirish uchun).

PVA yelimi „Moment“ yelimi.

Hayvonlarni ifodalovchi o'yinchoqlar uchun tukli bumazeya, suniy vatabiy jun gazlamalar.

Tana yuzasining ko'rinishlarini tasvirlovchi qo'ng'irchoq o'yinchoqlari uchun shifon, volta, sun'iy tolali shoyi gazlamalar yuz qismi uchun och pushti, och jigarrang gazlamalar, kiyimlari uchun rangli gazlamalar ishlatish tavsiya etiladi. Sochlar uchun sun'iy va visikoza iplaridan foydalanish mumkin. Tikish uchun tayyorlangan o'yinchoqni ichi paxta va boshqa materiallar bilan to'ldiriladi. Bosh qismini bezatish uchun tugmacha, munchoq, yaltiroq charm yoki kleyonka ishlatiladi

O'YINCHOQ TIKISH UCHUN KERAkli ASBOBLAR.

Turli katta kichiklikdagi inalar to'plami o'yinchoq detallarini bir biriga tikib ulash uchun, ko'z, og'iz, burun va hokazalarni tasvirlab tikish uchun ishlatiladi.

Qaychilar mo'ynali gazlamalarni bichishi uchun uchi bir oz qayrilgan o'tkir, qolgan gazlamalarni ichish uchun uchi to'g'ri va katta qaychilar ishlatiladi.

Uzun bigiz.

Omburlar metal simlarni tekislash va kesish uchun ishlatiladi.

Dazmol - gazlama bo'laklarini tekislashda ishlatiladi.

Yog'ochli, temirli tayoqcha – hajmli o'yinchoqlar uchini paxta va boshqa qoldiqlar bilan to'ldirishda ishlatiladi.

Tikuv mashinasi- o'yinchoq detallarini biriktirish uchun, mo'y qalamlar – qog'ozda grafik ishlarni chizishda o'yinchoq eskizlarini tasvirlashda ishlatiladi.

Bo'r (tikuvchilikda ishlatiladigan oq va rangli bo'rlar) va sovun qoldiq laridan o'yinchoq detallarini bichishda foydalaniladi.

Tikuvchilikda ishlatiladigan to'g'nag'ich –bulavkalar.

Nazorat topshiriklari:

1.1.1. Yumshok uyinchoklar turlari va ularning tayyorlash jarayoi xakida ma'lumot bering.

1.1.2. Yumshok uyinchok tikish uchun kanday material kerak buladi.

1.2.1. Yumshok uyinchoklar tikish uchun kanday asbob va moslamalar kerak buladi.

1.2.2. Yumshok uyinchoklar berilgan katorni toping.

A. Ayikcha, tup, kuyoncha, loydan yasalgan xaykalcha.

V. Gullar, divancha, stulcha, guldon,

S. Ayikcha, kuyoncha, kuchukcha, xar-xil yumshok uyinchoklar.

1.2.3. Uyinchoklarning axamiyatini batafsil tushuntirib bering.

2-asosiy masala buyicha ukituvchining maksadi:ukuvchilarga andoza tayyorlash, gazlama tikish, buyicha bilim berish va ularning kunikma va malakalarini shakillantirish.

Identiv ukuv maksadlari:

2.1. Andoza tayyorlashni tushuntirib beradilar.

2.2 Tayyor uyinchoklar bezak beradlar.

O'yinchoq tayyorlashda, eng avvalo, kartondan andoza tayyorlanadi Bichshdan avval andozani kalka qog'oziga tushirib qirqib olinadi. So'ngra qalinroq qog'ozga yoki kartonga, kerakli o'lchamga o'tqaziladi.(Andoza o'lchamini o'zgartirish mavzusiga qarang). Andoza detallarini joylashtirishda bir-biriga juda yaqin qo'ymaslik kerak. Harbir tayyor detalga nomi va nechadona bichish kerakligi yozib qo'yiladi. Masalan, tana qismi -2dona, quloq -4dona. Har bir o'yinchoq modeli andozasi alohida konvertlarda saqlanish lozim. Andozalar qiyshayib va buklanib qolmasligi uchun konvert hajmi andoza hajmi bilan bir xil detal andozasi to'g'riligiga bog'liq bo'lishini yodda tutish lozim.

GAZLAMANI BICHSh

Andoza gazlamaning teskari tomoniga joylashtiriladi va bo'r (sovun ,qalam)da extiyotorlik bilan nechta bichish lozim bo'lsa shuncha chizib chiqiladi, Juft detallar doimo „ko'zgu“ qoidasi bo'yicha bichilishini unutmaslik kerak Tukli, mo'ynali gazlvmalarning tuk yo'nalishi andozada ko'rsatilgan strelka yo'nalishi bilan bir xil bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Mo'ynadan tikiladigan o'yinchoq detallari, asosan, mo'yna qoldiqlari va laxtak bo'laklaridan bichiladi Andoza

detallarini bichishdaeng avval katta detallar joylashtiriladi. Mo'yna bo'lagining bittasiga andoza sig'masa, ularning tolaviy tarkibi, tuzilishi ranggi va tuklari yo'nalishi bo'yicha to'g'rilab, ikki-uch bo'lagini birlashtirib tikib olinadi.

Bichishda gazlamadan (chit, satin) tikish uchun esa 0,5-1,0 sm chok haqqi qoldiriladi. Barcha detallar chizib olinib, andozalardagi belgi chiziqlar tushirib olingach, yana bir tekshirib chiqiladi. Barcha jarayonlar to'g'ri bajarilgan bo'lsa, detallarni ehtiyotkorlik bilan qirqib olinadi.

ESLATMA. Mo'ynani kichik manikyur qaychisida faqatgina gazlama asosidan, tukiga zarar yetkazmasdan bichish qulay: chok haqqi ko'pincha 0,3-0,5sm qoldiriladi.

O'YINCHOQ TIKISHDA ISHLATILADIGAN CHOK TURLARI.

O'yinchoqning tashqi ko'rinishi, asosan tiklanadigan chok sifatiga bog'liq. Yumshoq o'yinchoq tayyorlashda gazlama turiga qarab qo'l va mashina choklaridan foydalanish mumkin. O'yinchoqlar tikishda to'g'ri chok, igna oldinlatilgan chok, qaviqchok, bosma chok, sirtmoqsimon choklardan foydalanadi.

Bichiq detallarining ichki choklarini birlashtirish uchun igna oldinlatilgan chok turidan foydalanadi. Chokni tortib, pishiq va mayda qaviq bilan tikiladi. Tikilgan bo'laklar chokning pishiqligini tekshirish uchun ularni har tomonga tortib ko'riladi: ular orasida teshiklar bo'lmasligi kerak.

Sittluvchan gazlamalarni birlashtirishda bezak choklari sifatida yorma qaviqdan foydalanish mumkin.

Mo'ynali bo'laklarni birlashtirishda chekkalaridan aylantirib tikiladi.

Tikib tayyorlangan, o'ngiga ag'darilgan, ichi to'ldirilgan o'yinchoq bo'laklarini birlashtirishda ko'rinmas chok turidan foydalanadi.

O'YINCHOQLAR ICHINI TO'LDIRISH.

O'yinchoqlar ichini to'ldirish uchun paxta, porolon, sintepon, sintopux kabi hajmli materiallardan foydalanish mumkin. Ushbu materiallarning ayrimlarida kamchiliklari bor. Poloron bir qancha vaqto'tgach, bo'laklarga bo'linib ketib, zaharli moddalar chiqaradi.

Paxta o'zining ekologik tozaligiga qaramay, vaqt o'tishi bilan yopishib qoladi va o'yinchoq tashqi ko'rinishini buzadi, sintepux juda qulay-ku, ammo topilishi qiyin.

Shuning uchun o'yinchoqlar ichini sintepon bilan to'ldirish tavsiya etiladi., ular qancha uzun va ingichka bo'lsa, shuncha yaxshi bo'ladi.

O'yinchoq ichiga don-dun, plastmassa qirqimlari qoldiqlari kabi sochiluvchan materiallardan foydalanib to'ldirilsa, quvnoq va kulgili o'yinchoqlar hosil bo'ladi.

Tayyor bo'lgan detalni o'ngiga ag'darib, qalam yoki tayoqcha yordamida, juda ham zichlamasdan, ammo bir tekis va do'mboqlarsiz to'ldiruvchi material bilan to'ldiriladi. Agar qo'l, oyoq kabi detallar ichida simlar bo'lsa, to'ldiruvchi material bilan to'ldirish vaqtida ular o'rtada qolib ketishi va detal yuziga chiqib qolmasligi kerak.

Nazorat topshiriklari

2.1.1. Andozalarni tayyorlash jarayoni xakida ma'lumot bering .

2.2.1 Uyinchok tikishda kanday chok turlaridan foydalaniladi.

- 2.2..2Uyinchoklarning ichi kanday tuldiriladi.
- 2.2.3. Andoza ulchamlari kanday uzgartiriladi.
- 2.2.4. Yumshok uyinchoklarnig tikish jarayoni xakida ma'lumot bering.

Adabiyetlar ruyxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi hunar-texnika ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi.
A.P. Xudayberganov, X. F. Rashidov., - Toshkent.: 1992, 24-42 betlar.
- 2.Vorobyev A.I. Mehnat politexnika ta'limi didaktikasi. – Toshkent.: O'qituvchi, 1992. 68-92 betlar.
- 3.Vorobyev A. I. va boshqalar. Mehnat ta'limi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. 87-112 betlar.
- 4.Mehnat ta'limdan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun davlat ta'lim standartlari. «Ta'lim taraqqiyot; IV maxsus son 1999.
- 5.Vorobyev A. i. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash metodikasi. –Toshkent: O'qituvchi. 1980. 110-140 betlar.
- 6.Mavlonova R. va boshqalar. Mehnat ta'limi metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi. 1986
7. K.M.Abdulayeva, M.A.Maxsumova Gazlamaga badiiy ishlov berish “chulpon” –T: 2006
8. T.A.Ochilov, N.G.Abbosov, F.J. Abdullayev Gazlamashunoslik.-“chulpon”-T: 2003.

11 MAVZU: Boshlangich sinflarda gazlama bilan ishlash darlarini tashkil etish metodikasi

Ajratilgan soat – 2

Mashgulot turi - ma'ruza

Asosiy masalalar:

1. Gazlama bilan ishlashnig axamiyati.
- 2 Kashtachilik xakida ma'lumot berish.

Tyanch tushuncha va iboralar: Gazlama, material, andoza, kashta, bezak, choklar, maxsulot, sintetika, tola , ip, igna, mashinka, rusim,moxir,tuguncha.

1. Asosiy masala buyicha ukituvchining maksadi:

Ukuvchilarga mexnat darslarida gazlamalar bilan ishlashni tanishtirish xamda, ularni kunikma va malakalarini shakillantirish.

Identiv ukuv maksadlari :

1. Gazlmaning turlari aytib beradilar.
2. Gazlamalar bilan ishlashning ahamiyati tushuntiradilar

1-asosiy masalaning bayoni:

Respublikamiz mustakillika erishgandan keyin tukimachilik, tikuvchilik korxonaliari keng miqyosda rivojlandi. Tikuvchilik jarayonida ishlatiladigan matolar tolaviy tarkibiga kura tabiiy va kimyoviy tolali gazlamalarga bulinadi.

Tabiiy tolali gazlamalarga –paxta, zigir, jun, irak, tolalaridan olinadigan gazlamalar kiradi.

Paxta-guza deb ataladigan usimlik urugini koplap turadigan ingichka tolalar bulib, tukimachilik sanoatining asosiy xom ashyosi xisoblanadi.

Zigir- poyaning lup kismidan olinadigan tola bulib, tarkibida selyuloza va boshka aralashmalardan iborat buladi. Zigirning xossalari xam paxtanikiga uxshash buladi. Issikni yaxshi utkazadi, tez kuriydi, kizigan dazmolga yaxshi chidaydi, paxtaga uxshab yaxshi yonadi.

Jun- bu junli xayvonlarning teri katlamlaridan olinadi. Respublikamizda kuy, tuya, echki, koramol va kuyon juni keng miqyosda ishlatiladi. Namni tez shimib, tez kuriydi. Xullab dazmol kilinsa chuziluvchanligi uzgaradi, olish va kirishish xususiyatiga bulgani uchun junni dazmollab kiskartirish chuzish mumkin.

Tabiiy ipak- bu ipak kurti uraydigan ingichka ip. Ipakka eritmalar ishkorklar ta'sir kilmaydi. Ipak buyalganda tolalariga suv uzok ta'sir etsa rangi uchadi. Kuyoshda tez rangsizlanadi. Junga uxshab tez yonadi.

Kimyoviy tolali gazlamalar ikkiga: suniy va sintetik tolali gazlamarga bulinadi. Suniy tolali gazlamalar tabiiy tolala gazlamalarni kayta ishlash orkali olinadi. Bu ishlovlarda, kuyoshga chidamliligi, gijimlanuvchanligi, kuyaga karshi chidamliligi, tashki kurinishi singari ayrim xossaliri yaxshilanadi. Viskoza tolali, misamiyak tolali, shisha tolali, metal ipli gazlamalar misol bula oladi.

Sintetik tolali gazlamalar esa tabiatda tola sifatida uchramaydigan, oddiy moddalarning molekulalarini biriktirish yuli bilan olinadi. Ularga: kapron, lavsan, nitron xlorin, poletilinlar kiradi.

Galamalar tolaviy tarkibidan tashkari pardozlanishiga karab xam sinflarga ajratiladi: xom, okartirilgan, buyalgan, gul bosilgan.

Ayrim gazlamalar maxsus pardozdan utkaziladi. Gijimlanuvchanlikka karshi kilib, suv yukmaydigan, yonishga va chirishga chidamli kilib ishlab chikariladi.

Tikuvchilikda ishlatiladigan gazlamalar, kuylaklik, kastyumlik, paltolik, plashlik va xakozalar uchun muljallangan buladi. Kiyim tikishda gazlamani tolaviy tarkibixossalari xisobga olinishi lozim.

Agar lavsanli jun gazlamalarni xullab dazmollasa ayrim joylari kirishiladi, ketmaydigan doglar paydo buladi. Kapron gazlamalar dazmolni tegizishi bilan erib ketadi .

Atsetat tolali gazlamalarga kizigan dazmol tegizishi bilan ketmaydigan yaltirok doglar paydo buladi.

Atsetat, triatseat tolali ipak gazlamalar ezilmaydigan yuvilganda kam kirishadigan va tez kuriydigan gazlamalar bulgani uchun, kup dazmollanishni talab kilmaydi.

Trikataj gazlamalar yumshok, elastik bulgani uchun yopishib turganda xam xarakatga xalakit bermaydi. Bugazlamalar xavo utkazmaydigan buladi va namni xam tez shimib oladi.

Kup gazlamalarga (duxoba, chiy duxoba, astarli sarja, suniy shoyi, tipidagi gazlamalar,) namlab issiklik ishlovi beriladi. Zigir tolali gazlamalarni teskari kilib xullab dazml kilinadi.

Gazlamalarni buyash uchun asosan toshkumirdan olinadigan sinetetik buyoklar ishlatiladi. Buyoklar mayda kukun va pastalar tarzida ishlab chikariladi. Gazlamani buyash uchun rangini yorokinligi, yoruglik, nam, yuvish, ishkalanish ta'siriga chidamli, xamda gazlamalarning tarkibiga karab buyoklardan foydalaniladi.

Nazorat topshiriklari

- 1.1.1 Tikuvchilik jarayonida ishlatiladigan matolar tolaviy tarkibiga kura kandy tolaviy gazlamalarga bulinadi.
- 1.1.2 Tabiiy tolali gazlamalarga kandy tolalardan olinadigan gazlamalar kiradi.
- 1.1.3. Kimyoviy tolali gazlamalarga nimalar kiradi
 - A. tabiiy tolalar
 - V. Suniy va sintetik tolalar
 - S. Irak tolalar kiradi
- 1.2.1. Sintetik tolali gazlamalarga nimalar kiradi
 - A. kapron, irak, shoyi, atlas.
 - V. Kapron, lavsan, nitron xlorin, polietilen.
 - S. Jun, irak, lavsan, kapron.
- 1.2.2. Gazlamalarning buyash usulini aytib bering.

Asosiy masala buyicha ukituvchining maksadi:

Ukuvchilarga mexnat darslarida kashtachilik san'ati bilan ishlashni tanishtirish xamda, ularni kunikma va malakalarini shakillantirish.

Identiv ukuv maksadlari:

- 2.1. Kashtachilik san'atining axamiyatini tushuntirib beradilar
- 2.2. Kashtachilik turlarini gapiradilar

2-asosiy masalaning bayoni:

KASHTACHILIK HAQIDA. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda katta ahamiyatga egadir. Kashta tikishni bilish orqali kiyimlarni yangilab olish, ko'pgina kerakli buyumlarni: salfetkalar, panno, fartuk, yostiqliklarni, yaqin kishilarga beriladigan sovg'alarni bezash va tayyorlash mumkin.

Kashta tikish qiziqarli va ijodiy ish bo'lib, u insonga ko'p quvonch keltirishi va nafosat olamiga olib kirishi **Nazorat topshiriklari** mumkin. Kashta tikish usullarini o'zlashtirayotganda bajarilayotgan ish birdaniga yaxshi chiqmasligi mumkin, chunki kashtachilik sabr-toqatli, e'tiborli, tartibli bo'lishni talab etadi. Kerakli malakalar egallagan sayin ish asta-sekin osonlasha boradi.

Kashta tikish san'atining ko'p asrlik tarixi bor. Arxeologik topilmalarda yozilishicha, qadimdan uy-ro'zg'or buyumlari –sochiqlar, to'r hoshiya, dasturxonlar bayram va kundalikda kiyiladigan kiyimlar, peshbandlar, bosh kiyimlar va boshqa narsalarni kashtalar tikib bezatilgan.

Kashta tikish usullari, gullari, ranglarning musamlanishi avloddan-avlodga o'tib takomillashib bordi. Asrlar davomida eng yaxshi kashtalar tanlanib olindi va milliy xususiyatlari bilan harakteli betakror kashta namunalari yaratildi.

Halq ustalarining kashta tikib bezagan buyumlari, chioyli gullari bilan ranglarining bir-biriga omsligi, to'la mutanosibli, bajarish usullarining har tomonlama aniqligi bilan ajralib turadi. Kashta tikilgan har bir buyum vazifasiga to'g'ri keladi.

Mamlakatimiz muzeylarida halq kashtachiligining ko'p namunalari to'plangan, ayniqsa, XIX asr kashtalari eng yaxshi saqlanib, shu kungacha yetib kelgan.

Kashta tikish asboblari va moslamalari

Qo'lda kashta tikish uun juda oddiy asboblari kerak bo'ladi. Bular: igna, angishvona, qaychi, santimetr tasmasi, uchli dukcha, gardish bundan tashqari milimetrlangan qog'oz, kalka, ko'chirish rangli qog'ozi.

Kashta tikish uchun cho'o'ziqroq ko'zli kalta (1va2 raqamli kashta tikadigan) ignalar tanlangani ma'qul. Ignalarning ko'zi katta bo'lsa, bir necha qavat ipni o'tqazish oson bo'ladi. Bunday ignalar sanama va oddiy choklarni tikishda, shuningdek vladimircha chokli kashtalarni tikishda ishlatiladi. Jun ipni ignaga o'tqazish qiyin bo'ladi. Bu ipni o'tqazichdan foydalanish mumkin.

Shuningdek, bir qatim ipak yoki ingichka g'altak ip bilan ham o'qazsa bo'ladi. Ipakni ikki qavat qilib, hosil bo'lgan halqa ichiga jun ipning uchi kiritiladi. Ipakning ikkala uchini igna ko'zidan o'tqazib, jun ip bilan tortib olinadi. Zich va yupqa (markizet, poltno, shoyi, bats) gazlamaga kashta tikishda ko'zi kichkina, ingichka igna kerak bo'ladi. Yo'g'on igna sanchilgan joylarda teshik qoladi, katta ko'zli ignada esa ingichka ipni yaxshi tutib bo'lmaydi. Buyumlarni biriktirib ko'klash uchun 1 va 3 raqamli ignalarni ishlatish qulayroq.

Kashta tikish jarayonida ignani gazlamadan o'tqazish uchun angishvona kerak bo'ladi. Ubarmoqqa igna kirishdan saqlaydi. Angishvona o'ng qo'lning o'rta barmog'iga taqiladi, uni barmoqning yo'g'onligiga qarab tanlanadi, lekin u barmoqni siqib yoki undan tushib qoladigan bo'lmasligi lozim.

Ishlash uchun uch xil qaychilar, uchi ingichka kichkina qaychi-gazlamadagi ipni qirqish va tortib tashlash uchun; uchi qayrilgan o'rtacha kattalikdagi qaychi – kashta tikayotganda ip uchini qirqish uchun; katta qaychi – gazlama va kalava iplarni qirqish uchun ishlatiladi. Qaychilar yaxshi charxlangan, tig'larining uchi to'la yopiladigan bo'lishi kerak.

Santimetr tasma. Tikish ishlarida buyum o'lchamlarini aniqlash, gazlamaga bezakni rejalash, kashta tikish ishlarini bajarishda foydali nadi.

Uchli dukcha (suyakdan, yog'ochdan yoki plastmassadan tayyorlanadi) oq tekis chokli kashta tikishda teshikchalar hosil qilish uchun ishlatiladi. Dukcha diametri taxminan 5mm, uzunligi 6-8sm bo'lishi lozim.

Gardishlar. Gazlamani tarang tortib turish va deformasiyalanishdan saqlash uchun ishlatiladi. Gardishlar to'g'ri burchakli yoki doira shaklida bo'ladi. Doira shaklidagi yog'och gardish juda qulay. U diametri 20-40 smli ikkita gardishdan iborat bo'lib, bir-birini ichiga tushib turadi. Hozirgi vaqtda turli-tuman gardishlar mavjud bo'lib, ularga gazlamani kiydirishda maxsus burama joyidan foydalanish mumkin, ya'ni gardish buramasini bo'shatib katta va kichik gardishlar ajratib olinadi, kichik gardishga gazlama tortilib katta gardio'ga kiydiriladi va burama mahkamlanib qo'yiladi.

Kashta tikiladigan gazlamani gardishga tortishda uni kichik gardish ustiga qo'yib, gazlamaning tanda va arqoq iplarni qiyshaytirmaydigan qilib to'g'rılanadi. Katta gardishniuning ustiga qo'yib, bosib gazlama tarang tortib qo'yiladi. Gardishga tortilayotgan yupqa gazlama yirtilmasligi, shuningdek, kashta tikiladigan gazlama ish paytida kir bo'lmasligi uchun uning o'rtasi gardishning diametridan kichikroq doira qilib kesilgan boshqa gazlama qo'yiladi.

Milimetrli qog'oz. Naqshlar, ayniqsa geometrik sanama naqshlar tuzishda kerak bo'ladi. Kashta gulini gazlamaga ko'chirishga tayyorlashda kalka ishlatiladi. Gul avval asl nusxadan kalkaga, so'ngra kalkadan gazlamaga ko'chiriladi.

Kashta gulni gazlamaga ko'chirish uchun ko'chirish rangli qog'ozi ham ishlatiladi.

Kashta tikishga tayyorgarlik.

Kashta tikishni boshlashdan oldin gazlamaning tanda va arqoq iplari bo'ylab tekislab, ustiga bezak qo'ladi va gazlamaga ko'chiriladi. So'ng gazlama gardishga tortiladi. Gazlama chetlarini tekislab olish uchun gazlamaning chetidagi ipni sug'urib olinadi, uning izi bo'ylab ortiqcha gazlama qirqib tashlanadi. Buyumning bo'yi va eni ham shunday belgilanadi.

Ko'puncha dasturxon yoki salfetkaning bukilgan chetiga yo'l shaklidagi bezak tikiladi. Ana shunday yo'l shaklidagi bezaklar bilan buyum yuzasini kvadratlarga, to'rtburchaklarga bo'lib, ularga kashtaning asosiy bezagini tiksa ham bo'ladi. Kashta gulini gazlamaga tushirishdan oldin yo'llar o'rnini belgilab, bittadan ip sug'urib olinadi. Natijada buyumning yuzasi kvadratlarga yoki to'g'ri to'rtburchaklarga bo'linadi. Shundan keyin ip sug'urib hosil qilingan yo'llar orasiga asosiy kashta bezagi joylashtirilib uni gazlama ustiga ko'chiriladi. Kashta tikib bo'linganda so'ng bu izlar ustiga biror chok yurgizdirilib tikiladi.

Agar kashta bezagi geometrik ko'rinishda, shuningdek, gazlamaning to'qilgan iplari aniq ko'rinib turgan bo'lsa, gazlama ipini sanash yo'li bilan tikish mumkin. Gazlama tuzilishiga bog'liq bo'lmagan chokni (Vladimircha chok, rangli tekis chok va hokazolarni) tikishda bezakni gazlama ustiga ko'chirish lozim bo'ladi.

Kiyim-kechklarga ularni bichishdan oldin yoki ularning bichilgan detallariga kashtani tikib olish eng qulaydir. Bichishdan oldin tikishda kiyimi detallarining konturlari andoza bo'yicha belgilab chiqiladi, keyin bezak ko'chiriladi va tikiladi.

Oson bezaklarni kiyimga tikish mumkin. Bunda gazlama tagiga qattiq qog'oz yoki taxtacha qo'yib, unga kashta guli ko'chiriladi.

Bezakni gazlamaga ko'chirish. Bezakni gazlamaga bir necha usulda ko'chirish mumkin. Hamma xollarda ham oldin bezakni asl nusxadan kalkaga yoki millimetrli qog'ozga uchi yaxshi ochilgan qalamdako'chirib olinadi. Shundan keyin gazlamaga ko'chiriladi.

1. Bezaki rangli qog'oz yordamida ko'chirish. Gazlamaning tanda va arqoq iplari qiyshayib qolmasligiga e'tibor berib, dazmollagan gazlama tekis joyga qo'yiadi. Bezak ko'chirilgan kalkani gazlama ustiga qo'yib, to'g'nag'ich bilan qadaladi. Ko'chirish rangli qog'ozining o'q tomonini gazlamaga qaratib kalka tagiga qo'yiladi. Uchi yaxshi ochilgan qalam bilan bezak ustidan chizib chiqiladi. Ko'chirish uchun turli rangdagi ko'chirish rangli qog'ozlari komplekti bo'lgani ma'qul, shunda och rangdagi gazlamaga to'q rangli (qora, ko'k, yashil), to'q rangli gazlamaga och rangli (oq, sariq) ko'chirish qog'ozi ishlatiladi.

Bezak ko'chirib olingach, ko'chirish rangli qog'ozi olinib, bir tomondagi to'g'nag'ichlar chiqariladi va bezak tekshiriladi. So'ngra kalka olinib tashlanadi.

Rasmni ko'chirish rangli qog'ozi bilan ko'chirishda bezakning chiziqlari qalin bo'lmasligini yodda tutish kerak, aks holda kashta tikayotganda gazlama va ip kir bo'lib qoladi. Shuning uchun ishlatilgan o'chirish rangli qog'ozidan foydalanish yaxshiroq, yangisini esa ishlatishdan oldin quruq paxta yoki latta bilan artish kerak.

2. Bezakni yorug'qa tutib ko'chirish. Yupqa shaffof gazlamalarga kashta gulini gazlama tagidan yoritish yo'li bilan ko'chirish mumkin. Tagiga lampa qo'yilgan oyna ustiga yaxshi ko'rinadigan kashta gulini qo'yib, uning ustiga yaxshi tortilgan (gardishga o'rnatilgan) gazlama qo'yiladi. Gazlama tagiga ko'rinib turgan kashta gulining uchi yaxshi ochilgan qalam bilan gazlamaga chizib chiqiladi.

3. Bezakni papiros qog'oz yordamida ko'chirish. Movut, baxmal va yaltiroq gazlamalar ustiga kashta gulini papiros qog'oz ustiga ko'klash yo'li bilan ko'chiriladi. Buning uchun bezakni papiros qog'ozga ko'chirib olib, gazlama ustiga qo'yiladi-da, butun konturi bo'ylab mayda zich qaviqlar bilan ignani oldinga yo'naltirilib tikib chiqiladi. Keyin qog'oz yirtib tashlanadi. Kashta tikib bo'lingach, ko'klangan ip so'kib tashlanadi.

Nazorat topshiriqlari

2.1.1 Inson xayoti xakida kashta tikish san'atining ahamiyatini tushuntirib bering.

2.1.2 Kulda kashta tikish uchun qanday asboblari kerak buladi.

2.2.1. Kashta tikishda qanday tayyorgarlik kurilidi.

2.2.2. Bezakni gazlamaga kuchirish usullari xakida ma'lumot bering

2.2.3. Kashtachilikda qanday iplar ishlatiladi.

Adabiyetlar ruyxati

1. O'zbekiston Respublikasi hunar-texnika ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi.

A.P. Xudayberganov, X. F. Rashidov., - Toshkent.: 1992, 24-42 betlar.

2. Vorobyev A.I. Mehnat politexnika ta'limi didaktikasi. – Toshkent.: O'qituvchi, 1992. 68-92 betlar.

- 3.Vorobyev A. I. va boshqalar. Mehnat ta'limi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. 87-112 betlar.
- 4.Mehnat ta'limdan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun davlat ta'lim standartlari. «Ta'lim taraqqiyot; IV maxsus son 1999.
- 5.Vorobyev A. i. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash metodikasi. –Toshkent: O'qituvchi. 1980. 110-140 betlar.
- 6.Mavlonova R. va boshqalar. Mehnat ta'limi metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi. 1986
7. K.M.Abdulayeva, M.A.Maxsumova Gazlamaga badiiy ishlov berish “chulpon “ –T: 2006
8. T.A.Ochilov, N.G.Abbosov, F.J. Abdullayev Gazlamashunoslik.-“chulpon”-T: 2003.

12 Mavzu: Boshlangich sinflardagi zamonaviy darslarga kuyiladigan talab va ular samaradorligini oshirish.

Ajratilgan soat – 4

Mashgulot turi - ma'ruza

Asosiy masalalar

1. Xozirgi kun talabi boshlangich sinf darslarini samaradorligini oshirish.
2. Boshlangich sinfda kunikma va malakalarini shakllantirish.

Tayanch tushuncha va iboralar: faol, ijod, tashabbus, fantaziya, didaktik material, bilish, ijtimoiy

1- asosiy masala buyicha ukituvchining maksadi: talabalarga boshlangich sinf ukuvchilariga dars samaradorligini oshirish yullarini tushuntirish.

Identiv ukuv maksadlar:

- 1.1. Xozirgi kunda ta'lim va tarbiyaning maksadini ta'riflaydilar.
- 1.2.Boshlangich sinf darslarini samaradorligini oshirish usul larini takrorlaydilar.

1 - asosiy masalaning bayeni:

Respublikamiz mustakil bulganidan sung ta'lim va tarbiya soxasiga juda katta e'tibor berilib kelinmokda. Ayniksa boshlangich sinf xatto maktabgacha muassalarda tabakalab ukitish yulga kuyildi.

Xozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri dars samaradorligini oshirish sifatini yaxshilashdan iboratdir.

Xar bir dars tarbiyaviy xarakterga egadir. U ukuvchilarni goyaviy mafkuraviy mexnat ma'naviy va jismoniy tarbiyalash birligini ta'minlaydi. Dars davomida ukuvchilarda mexnatga munosabat tarbiyalanadi va ularda mexnat kunikmalari

malakalari singdiriladi. Ukuvchilar moddiy ishlab chikarish soxasidagi amaliy faoliyatiga kasbni ongli tanlashga tayerlanadilar. Darsda ukuvchilarning chukur va mustaxkam bilimini egallash jiddiy kobiliyatini ustirish masalari xal etiladi. Xar bir darsning ukuvchilarda dikkatini jalb kilish xotirlash kiyeslash bilish fikr yuritish asosiy narsani ajratish xulosa va umumlashtirishlar uz ishini rejalashtirish uni kerakli suratda amalga oshirish imkoniyatlarini kura bilishi kerak.

Zamonaviy boshlangich ta'lim uchun ukuvchilarni nazariy ma'lumotlar bilan kurollantirish nazariyasi keyinchalik ongli egallash uchun zamin xozirlab borish kerak.

Dars mazmuniga kuyiladigan muxim talablardan biri darsning xayet ukuvchilarning shaxsiy tajribasi mexnat bilan chambarchas alokador bulmogi lozim. Ukitishni xayet bilan boglashda darslarda ulkashunoslik materiallaridan foydalanish ancha kul keladi. Amaliyetning kursatishicha bu darsning mazmunini ukuvchilar uchun yanada yakinrok va tushunarlirok kiladi va bilimlarning ongli xamda mustaxkam egallanishiga yerdam beradi. Ukuv materialining ukuvchilarga tushunarlilik va ularning bunga kunikma xosil kilishi dars mazmunining asosiy yutugidir. Aktiv akliy faoliyatga asoslangan ishdan bolalar katta konikish xissiyetiga ega buladilar. Ular uzlarining yaratgan kashfiyetlaridan kuvonadilar va fikrlanadilar, ijodiy tashabbus va fantaziyani namoyen kilishga xarakat kiladilar.

Bunday zamonaviy darsga kuyiladigan muxim talablarini ukuvchilarning bilim va ijodiy faoliyatlarini aktivlashtirishdir degan xulosa kelib chikadi. ukuvchilarni aktivlashtirish ayniksa ukitishning zamonaviy boskichi sharoitlarida anchagina murakkab pedagogik amaliyetdir. Shuning uchun ukuvchilarning ukuv faoliyatlarini aktivlashtirishga yerdam beruvchi vosita va usullarini tanlash ukituvchining doimo dikkat markazida bulishi shart. Ukuvchilarning bilish va ijodiy faoliyatlarini bir kator usullar vostasida aktivlashtirishga erishish mumkin.

1. Butun sinfga taklif etilgan muayyan ijodiy ishdan xar bir ukuvchining iloji boicha mustakil ishlash xissisini maksimal ta'minlash.

2. Bu maksadda maxsus didaktik materiallardan foydalanish.

3. Faoliyat turlarining urganilayotgan material bilan tugri munosabatini ta'minlash.

4. Dastur materialini asosida darsda zexnlilik tasavvur va shu kabilarni tekshirish xamda shakllash uziga xos konkurslar utkazish.

Mexnat darslarining muxim xususiyati shundaki bolalar mexnat va politexnik bilim kunikma va malakalarini xilma-xil amaliy ishlarni bajarish uzlariga kerak bulgan va odatda ijtimoiy foydali axamiyatga ega bulgan predmetlar yasash jarayenida egallaydilar.

Nazorat topshiriklari

1.1.1. Ukuvchilarni bilish va ijodiy faoliyatlarini kanday usullar vositasida faollashtirish mumkin.

A. rasmlar chizdirish

- V .kurgazmali kurollar yasash
- S. yukori sinf bilan musobaka tashkil etish
- D kuprok shugullanish
- 1.1.2. Dars mazmuniga kuyiladigan muxim talablardan biri nima?
 - A. kizikarli utish
 - V. ukituvchining talabchanligi
 - S. kuprok amaliy shugullanish
 - D. mustakil ishlash
- 1.2.1. Ta'lim va tarbiyaning maksadini ta'riflaydi.
- 1.2.2. Boshlangich sinf darslarini sifatini oshirishni izoxlay dilar.
- 1.2.3. Xozirgi kunda boshlangich sinf mexnati darslarining axvoli tugrisida gapirib bering.
- 2- asosiy masala buyicha ukituvchining maksadi:** Talabalarga boshlangich sinflarda mexnat darslarida kunikma va malakalarini shakllantirish usullarini tushuntirib berish.

IDENTIV UKUV MAKSADLARI

- 1.1. Mexnat kunikmasi tugrisida tushuncha beradi.
- 1.2. Mexnat malakasini ta'riflaydi.
- 1.3. Kunikma va malakani shakllantirish usullarini takrorlaydilar

2 - asosiy masalaning bayeni

Ukuvchilarni tayerlash va ularni amaliy faoliyatga tayerlashda mexnat malakalari va kunikmalarini rol uynaydi. Kuyi sinf ukuvchilariga mexnat ta'limini berish vazifalaridan biri unda bir kator mexnat malakalari va kunikmalarini shakllantirish.

Kunikma - bu kishining bilim va elementar tajriba asosida egallagan ma'lum xarakatni ongli bajarishga bulgan kobiliyatidir.

Masalan kartonni kesa bilish kunikmasi kaychini tugri ushlay bilish xarakatni anik muvofiklashtirish yunalishi kuch va bosimning tengligini saklash komatni muvofik keluvchi tarzda tutish degan ma'noni anglatadi. Bu urinda ustalik bilan xarakat kilib ma'lum ish shartlariga masalan ishning sur'ati va anikligiga rioya kilish kerak.

Aks xolda ish yaxshi chikmaydi.

Ukuvchilarning bilimlari ish jarayenida bajarilayetgan xarakatlarning nazariy asosi xisoblanadi. Xarakatning ayrim boskichlari va ularning izchilligi ana shu bilimlar orkali anglanadi tushuniladi. Elementar tajriba ukuvchilarga faoliyatning ma'lum turi buyicha tasavvur beradi. Bunday tasavvurlarning yaratishga ukuvchilarning shaxsiy tajribalari xam uzgalar tajribasining xam ular tomonidan idrok etilishi axamiyatlidir. Birok shaxsiy tajriba yetakchi rol uynaydi.

Uzgalar tajribasini idrok etish fakat shaxsiy natija tajriba mavjud bulgandagina ijobiy natija kursatadi. Urganuvchilarning shaxsiy tajribasi uzgalar tajribasini urganish uchun zamindir. Uzi uchun yangi bulgan xarakatlarni kupolrok bilan kiladi tez charchaydi.

Mazkur xarakat kup marta takrorlanganda urganuvchi mexnat maxoratini va chakonligini egallaydi.

Malaka faoliyatining mashk kilishlar jarayenida yetilgan avtomatlashgan komponentdir. Bu tez va anik bajarishni mashk kilish tufayli tarkib topgan avtomatlashgan kunikmadir.

Malaka - bu ma'lum mikdordagi mashk va usullar bajarilganda kunikmada sakrab utish degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun mazkur kunikma agarda malakani yuzaga keltirishni nazarda tutgan mashk va usullar tugri tuzilgan bulsa u tugri malakaga aylanishi mumkin.

